



KENG KO‘LAMLI DEMOKRATIK ISLOHOTLAR, PARLAMENTARIZM VA VAKILLIK HOKIMIYATINI RIVOJLANTIRISH BORASIDA ERISHILAYOTGAN KATTA NATIJALAR E‘TIROFI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 7-aprel kuni Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley Assambleyasi ochilishida nutq so‘zladi.



Anjumanda 140 ga yaqin davlatdan 2 mingdan ziyod delegatlar qatnashmoqda. O‘z safida 181 ta milliy parlament va 15 ta mintaqaviy uyushmani birlashtirgan Ittifoqning Assambleyasi ilk marta Markaziy Osiyo mintaqasida bo‘lib o‘tmoqda.

So‘zining avvalida O‘zbekiston Prezidenti so‘nggi yillarda dunyoning turli mintaqalarida to‘qnashuvlar, ekologik va texnologik fojialar, iqtisodiy inqirozlar, “savdo urushlari”, terrorizm va ekstremizm tahdidlari tobora kuchayib borayotganini qayd etdi.

— Bunday o‘ta murakkab sharoitda jahonda tinchlikni saqlash, ijtimoiy taraqqiyot va adolatni ta‘minlashda parlamentlar ishtiroki va ta‘sirini oshirishni zamonning o‘zi talab etmoqda, — dedi Prezident. Ta‘kidlash joizki, O‘zbekiston tashabbusi



bilan bu galgi Assambleya “Ijtimoiy taraqqiyot va adolat uchun parlament harakati” mavzusida o‘tkazilmoqda.

Tahlillarga ko‘ra, so‘nggi o‘ttiz yilda jahon yalpi ichki mahsuloti hajmi 4,5 barabarga ortgan. Lekin insoniyatning kambag‘al

qatlamlari daromadlari deyarli o‘zgarmagan. Agar bu tendensiya saqlanib qolsa, 2030-yilga borib dunyo aholisining 575 million nafari qashshoqlikda umr kechiradi. 84 million bola esa ta‘lim olish imkoniyatidan mahrum bo‘ladi.

Ushbu yo‘nalishda davlatlarning vakillik organlari o‘rtasida ko‘p qirrali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va yanada kengaytirish umumiy taraqqiyotga munosib hissa qo‘shishi qayd etildi.

[Davomi 3-beta](#)

PARLAMENTARIZMNI RIVOJLANTIRISH BORASIDAGI HAMKORLIK MASALALARI MUHOKAMA QILINDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 7-aprel kuni Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley Assambleyasi doirasida bir qator parlamentlar va xalqaro tashkilotlar rahbarlari bilan uchrashuv o‘tkazdi.



Davlatimiz rahbari dastlab Rossiya delegatsiyasiga rahbarlik qilayotgan Rossiya Federatsiyasi Federal Majlisi Federatsiya Kengashi Raisi Valentina Matviyenkonni qabul qildi. Uchrashuv avvalida davlatimiz rahbari Valentina Matviyenkonni tavallud

kuni bilan samimiy tabriklab, unga mustahkam sog‘liq, baxt-saodat va katta muvaffaqiyatlar tiladi. Federatsiya Kengashi Raisi O‘zbekiston yetakchisiga samimiy minnatdorlik bildirib, Rossiya Prezidenti Vladimir Putinning salomi va eng ergu tilaklarini yetkazdi.

O‘zbekiston bilan Rossiya o‘rtasidagi keng qamrovli strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada mustahkamlash masalalari ko‘rib chiqildi. Parlamentlararo aloqalar samarali bo‘layotgani yuksak baholandi.



Oliy darajada erishilgan kelishuvlar ijrosi ustidan parlament nazorati bo‘yicha faol hamkorlikni davom ettirish muhim ekanini ta‘kidlandi. Savdo-iqtisodiy sheriklik sur‘atini ta‘minlash, sanoat kooperatsiyasi loyihalari va gumanitar almashinuv dasturlarini

qo‘llab-quvvatlashga alohida e‘tibor qaratildi. O‘zbekiston bilan Vyetnam o‘rtasidagi yetakchisiga Vyetnam Kommunistik partiyasi Bosh kotibi To Lam, Prezidenti Luong Kuong va Bosh vaziri Fam Min Tinning salomini yetkazdi.

O‘zbekiston bilan Ozarbayjon o‘rtasidagi do‘stlik, strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada kengaytirish va mustahkamlashning dolzarb masalalari ko‘rib chiqildi.

[Davomi 2-beta](#)

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING PARLAMENTLARARO ITTIFOQNING 150-ASSAMBLEYASIDAGI NUTQI

Hurmatli Tuliya Ekson Xonim oliyalari! Hurmatli Martin Chungong Janobi oliylari! Hurmatli parlamentlar rahbarlari va a‘zolari! Xonimlar va janoblar! Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley Assambleyasida ishtirok etish uchun dunyoning barcha qit‘alaridan kelgan nufuzli delegatsiyalarni O‘zbekiston zaminida samimiy qutlashdan g‘oyat xursandman. O‘z safida 181 ta milliy parlament va 15 ta mintaqaviy uyushmani birlashtirgan Ittifoqning Assambleyasi ilk marta Markaziy Osiyo mintaqasida bo‘lib o‘tmoqda. Anjumanning azim po‘ytaxtimiz — Toshkent shahrida o‘tkazilayotgani bizga ulkan iftixor bag‘ishlaydi.

Bunday yuksak ishonch va ehtiromni biz yurtimizda olib borilayotgan keng ko‘lamli demokratik islohotlar, parlamentarizm va vakillik hokimiyatini rivojlantirish borasida erishilayotgan katta natijalarning e‘tirofi, deb qabul qilamiz. Men ham 15 yil davomida parlament a‘zosi bo‘lganman. Dunyoni tinch-osoyishta, jamiyatlarini yanada farovon qilishga qaratilgan oljanob faoliyatingiz naqadar mas‘uliyatli ekanini yaxshi bilaman va tushunaman. Sizlar — bamisoli xalqlarni bir-biriga bog‘lovchi mustahkam do‘stlik ko‘prigisiz. Sizlar — odamlarning dardu tashvishi va muammolarini eng quyi tizimdan

boshlab, kerak bo‘lsa, mintaqaviy va xalqaro miqyosga olib chiqishga, ularga samarali yechim topishga qodir bo‘lgan qudratli kuchsizlar. Albatta, sizlar o‘z xalqlaringizning xohish-irodasini namoyon etib, milliy taraqqiyot modellarini ishlab chiqishda, zamonaviy xavf-xatarlarga munosib javob berishda katta rol o‘ynamoqdasiz. Fursatdan foydalanib, Parlamentlararo Ittifoq rahbariyatiga, tashkilotga a‘zo va kuzatuvchi davlatlarning qonunchilik organlari hamda xalqaro parlament uyushmalari vakillariga chin dildan samimiy tashakkur izhor etaman.

[Davomi 2-beta](#)

VYETNAM BILAN AMALIY SHERIKLIKNI KENGAYTIRISH MUHIMLIGI QAYD ETILDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 7-aprel kuni mamlakatimizda rasmiy tashrif bilan bo‘lib turgan Vyetnam Milliy majlisi Raisi Chan Tzan Man boshchiligidagi delegatsiya bilan uchrashuv o‘tkazdi.

Suhbat avvalida delegatsiya rahbari O‘zbekiston yetakchisiga Vyetnam Kommunistik partiyasi Bosh kotibi To Lam, Prezidenti Luong Kuong va Bosh vaziri Fam Min Tinning salomini yetkazdi. O‘zbekiston bilan Vyetnam o‘rtasidagi ko‘p qirrali munosabatlarni, eng avvalo, savdo-iqtisodiyot va investitsiya sohalarida yanada rivojlantirish masalalari batafsil ko‘rib chiqildi. Hukumatlararo va idoralararo muloqotlarga tizimli tus berish zarurligi qayd etildi. Joriy yilda Xanoy shahrida Hukumatlararo komissiya yig‘ilishi va biznes forumini samarali o‘tkazish muhimligi ta‘kidlandi.

Yangi loyihalarni ilgari surish uchun energetika, geologiya, neft-kimyoy, elektrotexnika, to‘qimachilik, qishloq xo‘jaligi va boshqa tarmoqlarda sanoat kooperasi bo‘yicha kompleks dastur tayyorlashga kelishib olindi. Madaniyat va turizm sohalaridagi almashinuvlarni, shu jumladan, vizasiz tartibni joriy qilish orqali rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratildi. Qo‘shma tashabbuslarning amaliy ijrosini ta‘minlash maqsadida parlamentlararo muloqotni faollashtirishga ahdlashib olindi.



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING PARLAMENTLARARO ITTIFOQNING 150-ASSAMBLEYASIDAGI NUTQI

Boshlanishi 1-betda

O‘zbekistonga xush kelibsiz, aziz mehmonlar!

Hurmatli Assambleya ishtirokchilari! Sir emas, so‘nggi yillarda dunyoning turli mintaqalarida qurolli to‘qnashuvlar, ekologik va texnologik jihatdan, iqtisodiy inqirozlar, “savdo urushlari”, terrorizm va ekstremizm tahdidlari tobora kuchayib bormoqda. Bunday o‘ta murakkab sharoitda jahonda tinchlikni saqlash, ijtimoiy taraqqiyot va adolatni ta‘minlashda parlamentar ishtiroki va ta‘sirini oshirishni zamonning o‘zi talab etmoqda.

Vakillik diplomatiyasini amalga oshirish, dolzarb masalalarni xalqlar va davlatlarning umumiy manfaatlarini asosida tizimli hal etishda Parlamentlararo Ittifoq nufuzli va eng yirik ko‘p tomonlama institutga aylanganini alohida ta‘kidlamoqchiman.

Ittifoqning Birlashgan Millatlar Tashkilotida doimiy kuzatuvchi maqomiga ega ekani uning global barqarorlik va hamjihatlikka qo‘shayotgan hissasining ifodasidir. Bugungi anjumanda 140 ga yaqin davlatdan 2 mingdan ziyod ishtirokchilar qatnashayotgani ham fikrimning yorqin dalilidir.

Bizning tashabbusimiz bilan Assambleya “Ijtimoiy taraqqiyot va adolat uchun parlament harakati” mavzusida o‘tkazilayotgani albatta chuqur ramziy ma‘noga ega.

Tahlillarga ko‘ra, so‘nggi o‘ttiz yilda jahon yalpi ichki mahsuloti hajmi 4,5 barobarga ortgan. Lekin, afsuski, insoniyatning kambag‘al qatlamlari daromadlari deyarli o‘zgarmagan. Agar bu tendensiya saqlanib qolsa, 2030-yilga borib dunyo aholisining 575 million nafari qashshoqlikda umr kechiradi. 84 million bola esa ta‘lim olish imkoniyatidan mahrum bo‘ladi. O‘z-o‘zidan ravshaniki, bu holat iqtisodiyot va jamiyatga katta zarar yetkazadi, ijtimoiy-iqtisodiy institutlar faoliyatini zaiflashtiradi, pirovard natijada odamlarning imkoniyatlarini cheklaydi.

Albatta, bunday tengsizlikning asl sabablarini aniqlash va uning oqibatlariga qarshi kurashish barchamizning asosiy vazifamizdir.

Ishonaman, ushbu yo‘nalishda davlatlarning vakillik organlari o‘rtasida ko‘p qirrali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va yanada kengaytirish umumiy taraqqiyotimizga munosib hissa qo‘shadi.

Bu borada parlamentlar eng yaxshi an‘ana va ilg‘or tajribalarni ishga solish va almashish,

o‘zaro sa‘y-harakatlarni birlashtirgan holda, bor intellektual salohiyati va kuchini to‘liq safarbar qilishiga umid qilaman.

Barchangizga ana shunday sharaflı ishda ulkan yutuq va omadlar tilayman.

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari va a‘zolari!

Bugungi kunda Yangi O‘zbekiston ortga qaytmas demokratik islohotlar va pragmatik tashqi siyosat yo‘lidan dadil qadam bosib, dunyo hamjamiyati bilan ochiq va jadal muloqot olib bormoqda.

Biz mamlakatimizda kuchli va mas‘uliyatli parlamentni barpo etish, samarali parlament diplomatiyasini tatbiq qilish uchun keng sharoitlar yaratyapmiz.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasida parlament institutini rivojlantirishni muhim vazifa sifatida alohida belgiladik. So‘nggi yillarda qonun chiqaruvchi hokimiyatning jamiyat va davlat hayotidagi o‘rmini oshirishga qaratilgan 20 dan ziyod qonunlar qabul qilindi.

Ayniqsa, 2023-yili umumxalq referendumı orqali qabul qilingan yangi Konstitutsiyada parlament vakolatlari keskin oshirildi. Oliy Majlis Qonunchilik palatasining mutlaq vakolatlari 5 tadan 12 taga, Senat vakolatlari esa 14 tadan 18 taga yetkazildi. Sud, korruptsiyaga qarshi kurash va qaroqat organlarini shakllantirish bo‘yicha Prezidentning qator vakolatlari qonun chiqaruvchi hokimiyatga o‘tkazildi. Parlamentning Hukumatni shakllantirishdagi ishtiroki, huquqni muhofaza qiluvchi organlar ustidan nazorat mexanizmlari yanada kuchaytirildi.

Bu o‘zgarishlarga mos tarzda hududlarimizda ham xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining vakolatlari kengaytirildi. Jumladan, 30 dan ortiq vakolatlar mahalliy Kengashlarga o‘tkazildi va bu jarayonlar izchil davom ettirilmoqda.

Milliy parlamentimizda xotin-qizlarning ulushi bugungi kunda 38 foizga yetdi. Mazkur ko‘rsatkich Parlamentlararo Ittifoq tomonidan yuksak e‘tirof etilib, Osiyo mintaqasida so‘nggi o‘ttiz yilda eng yuqori o‘shish sifatida baholangan bizga alohida mamnuuniyat bag‘ishlaydi.

Bundan tashqari, 2021-yilda Oliy Majlis palatalari qoshida ilk bor yoshlar parlamentlari faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Ayni paytda milliy parlamentimiz 100 ga yaqin xorijiy hamkorlari bilan yaqin aloqalar o‘rnatgan. 80 ta qo‘shma do‘stlik guruhlari va komissiyalari samarali ishlayapti.

O‘zbekiston parlament yo‘nalishida global ahamiyatga molik bo‘lgan qator xalqaro tashabbuslarni ilgari surib kelmokda. Xususan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining “Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishni jadallashtirishda parlamentlarning rolini kuchaytirish to‘g‘risida”gi rezolyutsiyasi qabul qilindi.

Ittifoq bilan hamkorlikda Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun har ikki yilda Parlamentlararo global hamkorlik forumi o‘tkazib kelinmoqda.

O‘zbekiston vakillari Osiyo Parlamentari Assambleyasi, Markaziy Osiyo parlamentlari forumi, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining Parlament Assambleyasi, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi Parlamentar Assambleyasi va boshqa platformalarda faol ishtirok etmoqda.

Umuman, bugungi kunda vakillik organlarimiz Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish, fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy himoya va kambag‘allikni qisqartirish, gender tenglikni ta‘minlash, korruptsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ham o‘z zimmasiga katta mas‘uliyat olgan.

Ushbu ezu maqsadlarni ro‘yobga chiqarish uchun parlamentimizda yetarli salohiyat, yuksak tafakkur va boy tajribaga ega, yoshlarning mustahkam ishonchini qozongan jonkuyar va fidoyi xalq noiblari faoliyat yuritmoqda.

Hurmatli nomilar va janoblar!

Jahonda yuz berayotgan bugungi global o‘zgarishlar Parlamentlararo Ittifoq va milliy parlamentlarimiz oldiga yangidan-yangi vazifalarni qo‘ymoqda.

Hozirgi vaqtda O‘zbekiston ushbu Tashkilotning to‘laqonli a‘zosi sifatida uning barcha tuzilma va forumlari ishida faol ishtirok etib kelmokda. Global kun tartibidagi ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha sarmahsul amaliy hamkorlikni yo‘lga qo‘yganimiz.

Ijoratning bilan quyidagi masalalarga alohida to‘xtalib o‘tmochkiman.

Birinchi. Jahonning turli mintaqalaridagi nizolar global va mintaqaviy tinchlik va xavfsizlikka jiddiy tahdid solmoqda.

O‘zbekiston har qanday ziddiyat va qarama-qarshiliklarni faqat diplomatiya va tinch muzokaralar yo‘li bilan hal etishning qat‘iy tarafdori ekanini yana bir bor ta‘kidlamokchiman.

Umid qilamizki, Ukraina atrofidagi vaziyat bo‘yicha boshlangan muzokaralar jarayoni o‘zining ijobiy natijasini beradi.

Eng og‘riqli muammolarga xalqaro huquqning umume‘tirof etilgan me‘yorlari, Birlashgan Millatlar Tashkilotining, Nizomi va rezolyutsiyalari asosida yechim topish muhim, deb hisoblaymiz.

Jumladan, Falastin — Isroil nizosining yagona va adolatli yechimi “ikki xalq uchun — ikki davlat” tamoyilini ro‘yobga chiqarishdan iboratdir.

Bizga qo‘shni bo‘lgan Afg‘oniston haqida to‘xtalib o‘tmaslik mumkin emas. Ushbu mamlakatning xalqaro maydonda yakkalanib qolishiga yo‘l qo‘ymaslik, amaldagi hukumat bilan konstruktiv muloqot o‘rnatish, Afg‘onistonga Markaziy Osiyo mintaqasining ajralmas qismi va yangi imkoniyatlar makoni sifatida qarash lozim, deb hisoblaymiz. Bu borada parlamentlarning ko‘magiga ishonamiz.

Umuman olganda, O‘zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkilotini universal va muqobili yo‘q yagona global tuzilma sifatida e‘tirof etadi. Biz bu borada Bosh kotib Antoniu Guterrishning mazkur xalqaro tashkilotni chuqur isloh qilish, uning salohiyatini oshirish bo‘yicha olib borayotgan tizimli sa‘y-harakatlarini to‘liq qo‘llab-quvvatlaymiz.

Shu bilan birga, Yevroosiyo guruhining Ikkinchi jahon urushida qozonilgan G‘alabaning 80 yilligiga bag‘ishlangan bayonotini to‘la olqishlaymiz.

Ikkinchi. Davrimizning o‘tkir muammosiga aylangan, sayyoramiz taraqqiyotiga jiddiy to‘siq bo‘layotgan iqlim o‘zgarishlari doimo diqqatimiz markazida bo‘lishi kerak. Chunki uning ayancli oqibatları, eng avvalo, rivojlanayotgan mamlakatlarga kuchli ta‘sir ko‘rsatmoqda.

Parij bitimi doirasida va uglerod neytralligiga erishish borasida o‘z zimmamizga olgan majburiyatlarini to‘liq bajarish har qachongidan ham muhimdir.

Bu masalalarni yaqında Samarqandda bo‘lib o‘tgan xalqaro iqlim forumida ham atroficha muhokama qildi.

Davlatlarning iqlim siyosati bo‘yicha ilg‘or tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, qayta tiklanadigan energiya manbalari va “yashil” texnologiyalarga o‘tishni rag‘batlantirish parlamentlarning muhim vazifasiga aylansa, albatta, salmoqli yutuqlarga erishamiz.

Iqlim o‘zgarishi mavzusi Assambleyaning kun tartibidagi bosh masalalardan biri sifatida doimiy o‘rin olishi kerak, deb hisoblaymiz.

Uchinchi. Xotin-qizlar huquqlarini qat‘iy qaror toptirish ijtimoiy taraqqiyotning asosiy shartlaridan biridir.

Tahlillarga ko‘ra, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida ayollarning erkaklar bilan teng ishtiroki ta‘minlansa, jahon yalpi ichki mahsuloti hajmi 26 foizga o‘sadi. Dunyo miqyosida ayol deputatlarning ulushi 1995-yildagi 11,3 foizdan joriy yilga kelib 27,2 foizga ko‘tarilgani albatta quvonarli holdir.

Jamiyat boshqaruvida ayollar faolligini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ta‘sirchan choralar yordamida, hech shubhasiz, yangi natijalarga erishamiz.

So‘nggi yillarda yurtimizda Birlashgan Millatlar Tashkiloti institutlari va Parlamentlararo Ittifoq bilan hamkorlikda Osiyo xotin-qizlar forumi va Jahon parlamentlari ayol rahbarlarining 14-sammiti samarali o‘tkazilganini alohida ta‘kidlamokchiman.

Shu bois, bizning tashabbusimiz bilan ilgari surilayotgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining “Osiyo xotin-qizlarining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy va madaniy-gumanitar faolligini oshirish to‘g‘risida”gi rezolyutsiyasini qo‘llab-quvvatlashigizga umid qilaman.

To‘rtinchi. Yoshlarning parlament faoliyati bilan bir qatorda jamiyat hayotining barcha jabhalarida to‘laqonli ishtirok etish uchun ularning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish o‘ta dolzarb masaladir.

Parlamentlar uchun yangi avlodni tarbiyalash, bu borada samarali xalqaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish kelajagimizning muhim omilidir. Shu bois, milliy parlamentlar hamda Ittifoq faoliyatiga yoshlarni faol jalb etib, doimiy muloqotni kuchaytirish zarur, deb o‘ylayman. Bu borada Parlamentlararo Ittifoq tizimi doirasida Yoshlar parlamentlari global platformasini tashkil etish va uning ta‘sis forumini O‘zbekistonda o‘tkazishni taklif qilaman.

Beshinchi. Har bir insonning ijtimoiy himoyaga bo‘lgan huquqlarini ta‘minlash, xalqaro standart va me‘yorlar asosida sifatli xizmatlar ko‘rsatish har qachongidan ham dolzarb masaladir.

Biz O‘zbekistonni ijtimoiy davlat, deb e‘lon qilib, aholining har tomonlama himoyasini ta‘minlashni siyosatimizning ustuvor yo‘nalishi etib belgiladik. “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturini amalga oshiryapmiz.

Oxirgi sakkiz yilda 7 milliondan ziyod aholi kambag‘allikdan chiqarilib, uning darajasi 35

foizdan 8,9 foizga tushirildi. Joriy yilda bu ko‘rsatkichni 6 foizga pasaytirishni maqsad qilganmiz.

Shu yil sentabr oyida yurtimizda bo‘lib o‘tadigan kambag‘allikni qisqartirishga bag‘ishlangan xalqaro konferensiya ishida davlatlaringiz parlamentlari vakillarini faol ishtirok etish uchun taklif qilamiz.

Yana bir muhim masala. Hozirgi kunda barcha jabhalarga keng kirib kelayotgan sun‘iy intellekt sohasida tizimli hamkorlikni kuchaytirishni bugungi zamonning o‘zi bizdan talab etmoqda.

Sun‘iy intellektidan foydalanish etikasi bo‘yicha model qonun ishlab chiqilsa, ushbu innovatsion huquqiy asos dunyo miqyosida tez rivojlanayotgan ushbu sohani samarali tartibga solishda barcha davlatlar uchun o‘ziga xos namuna bo‘lar edi.

Hurmatli parlamentlar rahbarlari va a‘zolari!

Bizning barcha taklif va tashabbuslarimiz Parlamentlararo Ittifoqning Strategiyasi maqsadlariga to‘la mos ekani bilan ahamiyatlidir.

Shu bilan birga, yondashuvlarimiz bugungi tarixiy Assambleya yakunlari bo‘yicha qabul qilinadigan Toshkent deklaratsiyasida ham o‘z ifodasini topadi, deb ishonaman.

Albatta, dunyodagi hech bir davlat va jamiyat faqat ko‘plab qonun yoki qarorlar qabul qilish bilan rivojlana olmaydi. Barchamiz bu yo‘lda birlashib, qonun ijodkorligi ruhini kuchaytirib, bor bilim va tajribamizni yagona maqsad sari safarbar etish orqali umumiy maqsadimizga erisha olamiz.

Assambleya doirasida o‘tayotgan 70 ga yaqin turli tadbir va debatlarida parlamentlar oldida turgan eng asosiy vazifalar yuzasidan atroflicha fikr almashiladi hamda istiqbolli rejalr belgilab olinadi, deb ishonaman.

Qabul qilinadigan barcha qarorlar esa ko‘p qirrali va uzoq muddatli hamkorligimiz tarixida yangi sahifa ochildi.

Aziz do‘stlar!

Xalqaro hamjamiyatning Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish, ijtimoiy adolat va tenglikni ta‘minlash hamda yuksak demokratik qadriyatlarni ilgari surish yo‘lidagi ezuq faoliyatigizda barchangizga mustahkam sog‘liq va tuganmas kuch-g‘ayrat yor bo‘lsin!

Assambleya ishiga katta yutuq va muvaffaqiyatlar tilayman. E‘tiboringiz uchun rahmat.

PARLAMENTARIZMNI RIVOJLANTIRISH BORASIDAGI HAMKORLIK MASALALARI MUHOKAMA QILINDI

Boshlanishi 1-betda

Iqtisodiy hamkorlik yili doirasida birgalikda samarali ishlar amalga oshirilayotgani mamnuuniyat bilan qayd etildi. Tovar ayirboshlash hajmi ortmoqda, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida kooperatsiya loyihallari faol pallaga kirgan. Madaniy-gumanitar tadbirlar muntazam o‘tkazib kelinmoqda.

Erishilgan kelishuvlar ijrosini nazorat qilish va bo‘ljak oliy darajadagi sammitlar uchun yangi takliflar ishlab chiqish maqsadida parlamentlar o‘rtasida yaqin amaliy hamkorlikni va faol almashinuvlarni davom ettirish muhim ekani ta‘kidlandi.

Belarus Respublikasi Milliy Majlisi Respublika Kengashi Raisi Natalya Kochanova bilan uchrashuvda ko‘p qirrali O‘zbekiston — Belarus munosabatlarini yanada kengaytirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Uchrashuv avvalida Belarus delegatsiyasi rahbari O‘zbekiston yetakchisiga Prezident Aleksandr Lukashenkovning salomi va eng ezuq tilaklarini yetkazdi.

Tovar ayirboshlash hajmi jadal ortib borayotgani, sanoat va qishloq xo‘jaligida kooperatsiya loyihallari muvaffaqiyatli amalga oshirilayotgani, hududlar o‘rtasidagi hamkorlik samarali bo‘layotgani, madaniyat, ta‘lim va sog‘liqni saqlash sohalaridagi almashinuvlar faollashgani mamnuuniyat bilan qayd etildi.

Faol parlamentlararo muloqotni davom ettirish, shu jumladan, oliy darajada erishilgan kelishuvlarning parlament nazoratini ta‘minlash va o‘z vaqtda bajarilishiga ko‘maklashish muhim ekani ta‘kidlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Parlamentlararo Ittifoqning 150-Assambleyasida ishtirok etish uchun mamlakatimizga kelgan Markaziy Osiyo mamlakatlari parlamentlari delegatsiyalari rahbarlarini qabul qildi.

Qo‘shma uchrashuvda Qozog‘iston Respublikasi Parlamenti Majlisi Raisi Yerlan Koshanov, Qirg‘iz Respublikasi Jogorku Keneshi Torag‘asi Nurlanbek Tung‘unbek o‘g‘li, Tojikiston Respublikasi Majlisi Namoyandagani Raisi Fayzali Idizoda va Turkmaniston Majlisi Raisi Dunyogo‘zal Gulmanova ishtirok etdi.

Yuqori martabali mehmonlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga o‘z mamlakatlari

yetakchilarining samimiy salomi va eng ezuq tilaklarini yetkazdilar, mintaqamizda ilk bor o‘tkazilayotgan ushbu xalqaro tadbirning ahamiyatini alohida ta‘kidladilar.

Qardosh mamlakatlar o‘rtasidagi do‘stlik, yaxshi ko‘shnichilik, strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada mustahkamlash va rivojlantirish masalalari ko‘rib chiqildi.

4-aprel kuni Samarqand shahrida o‘tgan “Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi” birinchi sammiti va Iqlim forumining samarali natijalari yuksak baholandi.

Oliy va yuqori darajadagi faol muloqotlar alohida mamnuuniyat bilan qayd etildi. Yaqında mintaqada o‘tkazilgan uchrashuvlar, jumladan, chegaralarni delimitatsiya qilish masalalari to‘liq tartibga solingani hamda Xo‘jand shahrida O‘zbekiston, Qirg‘iziston va Tojikiston davlat chegaralarining tutash nuqtasi to‘g‘risidagi shartnoma imzolangani tarixiy ahamiyatga ega ekani ta‘kidlandi.

Keyingi yillarda mintaq mamlakatlari o‘rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi ko‘p karra oshdi, chegaraldi savdo zonaları tashkil etilmokda.

Iqtisodiyotning turli tarmoqlarida, shu jumladan, mamlakatlarimiz hududlarida kooperatsiya loyihallari muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Madaniyat va ta‘limda tadbirlarga boy dasturlar ro‘yobga chiqarilmokda.

Uchrashuvda mamlakatlarimiz va xalqlarimizni yanada yaqinlashtirish, qo‘shma kooperatsiya tashabbuslari va loyihalarini ilgari surish, hududlararo aloqalar va gumanitar almashinuvni kengaytirish maqsadida parlamentlararo muloqotni, shu jumladan, qo‘mitalar darajasida mustahkamlash muhim ekani ta‘kidlandi.

Turkiya Respublikasi Buyuk millat majlisi Raisi Numan Kurtulmush boshchiligidagi delegatsiyasi bilan uchrashuv avvalida Turkiya parlamenti raisi davlatimiz rahbariga Prezident Rejep Tayyip Erdog‘anning salomi va eng ezuq tilaklarini yetkazdi.

O‘zbekiston bilan Turkiya o‘rtasidagi do‘stlik va keng qamrovli strategik sheriklik munosabatlarini mustahkamlashning dolzarb masalalari ko‘rib chiqildi.

Ikki tomonlama hamkorlikda yuksak darajaga erishilgani katta mamnuuniyat

bilan qayd etildi. O‘zaro tovar ayirboshlash va investitsiya ko‘rsatkichlari o‘smokda, muvaffaqiyatli qo‘shma loyiha va korxonalar soni, to‘g‘ridan to‘g‘ri parvozlar ko‘paymoqda. Ikki davlat va xalqni yaqinlashtirishga qaratilgan muhim madaniy tadbirlar o‘tkazilmokda.

Parlamentlararo aloqalarni yanada rivojlantirishga, O‘zbekiston — Turkiya sherikligining yangi kun tartibini shakllantirish, hududlararo hamkorlikni faollashtirishda, shuningdek, oliy darajadagi kelishuvlar ijrosi ustidan nazoratni ta‘minlashda do‘stlik guruhlarining ishtirokiga alohida e‘tibor qaratildi.

Pokiston Islom Respublikasi Senati Raisi Yusuf Rizo G‘iloniy boshchiligidagi delegatsiyasi bilan uchrashuvda O‘zbekiston — Pokiston strategik sheriklik munosabatlarini izchil rivojlanib borayotgani katta mamnuuniyat bilan qayd etildi.

Uchrashuvda yuqori martabali mehmon davlatimiz rahbariga Prezident Asif Ali Zardariy va Bosh vazir Shahboz Sharifning salomi va eng ezuq tilaklarini yetkazdi.

O‘zaro savdo hajmi, qo‘shma korxonalar va to‘g‘ridan to‘g‘ri parvozlar soni ortmoqda, ikki mamlakat yetakchi kompaniyalari ishtirokida biznes forumlari va ko‘rgazmalar muntazam o‘tkazilmokda.

Yaqında O‘zbekistonga amalga oshirilgan oliy darajadagi tarixiy tashrif davomida erishilgan kelishuvlarning samarali ijrosini ta‘minlashda parlamentlarning rolini kuchaytirishga alohida e‘tibor qaratildi.

Savdo-iqtisodiyot, investitsiya va transport sohalaridagi ustuvor loyiha hamda dasturlarni jadallashtirish, shu jumladan, Transafg‘on yo‘li qurilishini ilgari surish, shuningdek, hududlararo hamkorlik va gumanitar almashinuvni kengaytirish muhimligi qayd etildi.

Davlatimiz rahbari Hindiston Respublikasi parlamentining quyi palatasi — Lok Sabha Spikeri Om Birla boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.

Uchrashuv avvalida spiker davlatimiz rahbariga Hindiston Bosh vaziri Narendra Modining salomi va eng ezuq tilaklarini yetkazdi.

O‘zbekiston — Hindiston strategik sheriklik munosabatlarini yanada kengaytirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Ko‘p qirrali hamkorlik izchil rivojlanib borayotgani mamnuuniyat bilan qayd etildi. Keyingi yillarda tovar ayirboshlashda barqaror o‘shish kuzatilmokda, muvaffaqiyatli kooperatsiya loyihallari ko‘paymoqda, aviaqatnovlar kengaymoqda.

Energetika, sog‘liqni saqlash, farmatsevtika, IT, qishloq xo‘jaligi kabi sohalarida loyihalar amalga oshirilmokda.

O‘zbekistonda Hindistonning 4 ta universiteti filiallari faoliyat yuritmoqda.

Subhatda yaqin parlamentlararo almashinuvlarni, sohaviy qo‘mitalar darajasida faol aloqalarni yo‘lga qo‘yish, do‘stlik guruhlari va yoshlar platformalarini tashkil etish, shuningdek, ikki mamlakat hududlarining salohiyatini samarali ishga solish muhimligi ta‘kidlandi.

Shundan so‘ng O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev arab davlatlari parlamentlari rahbarlarini qabul qildi.

Uchrashuvda Arab parlamentlari Raisi Muhammad bin Ahmad Al-Yamahiy, Bahrayn parlamenti Vakillar kengashi Spikeri Ahmad bin Salmon Al-Musallem, Misr Vakillar palatasi Spikeri Hanafiy Ali Al-Jabali, O‘mon Sho‘ro kengashi Raisi Xolid bin Hilol Al-Ma‘avali, Qatar Sho‘ro kengashi Raisi Hasan bin Abdulloh Al-G‘anim va Birlashgan Arab Amirliklari Federal milliy kengashi qo‘mitasi raisi Ali Rashid Al-Nuaymiy ishtirok etdi.

Arab dunyosi davlatlari bilan ko‘p qirrali munosabatlarni, shu jumladan, parlamentlararo aloqalar orqali yanada rivojlantirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Uchrashuv avvalida delegatsiyalar rahbarlari O‘zbekiston yetakchisiga o‘z mamlakatları yetakchilarining samimiy salomi va eng ezuq tilaklarini yetkazdilar.

Keyingi yillarda O‘zbekiston va arab mamlakatlarining keng qamrovli sherikligi jadal rivojlanib borayotgani katta mamnuuniyat bilan qayd etildi.

Oliy darajadagi tarixiy tashriflar amalga oshirildi, o‘zaro muloqot va almashinuvlar faol davom ettirilmokda.

Birlashgan Arab Amirliklari va Qatar Davlati bilan munosabatlar strategik sheriklik darajasiga ko‘tarildi, Saudiya Arabistoni va Misr bilan keng qamrovli hamkorlik yo‘lga qo‘yildi.



KENG KO‘LAMLI DEMOKRATIK ISLOHOTLAR, PARLAMENTARIZM VA VAKILLIK HOKIMIYATINI RIVOJLANTIRISH BORASIDA ERISHILAYOTGAN KATTA NATIJALAR E‘TIROFI

Boshlanishi 1-betda

Prezidentimiz ta’kidlaganidek, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida parlament institutini rivojlantirish muhim vazifa sifatida belgilangan. Keyingi yillarda qonun chiqaruvchi hokimiyatning jamiyat va davlat hayotidagi o‘rmini oshirishga qaratilgan 20 dan ziyod qonunlar qabul qilindi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining mutlaq vakolatlari esa 14 tadan 12 taga, Senat vakolatlari esa 14 tadan 18 taga yetkazildi. Prezidentning qator vakolatlari qonun chiqaruvchi hokimiyatga o‘tkazildi.

Milliy parlamentimizda xotin-qizlarning ulushi bugungi kunda 38 foizga yetdi. 2021-yilda Oliy Majlis palatalari qoshida ilk bor yoshlar parlamentlari faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

O‘zbekiston parlament yo‘nalishida global ahamiyatga molik bo‘lgan qator xalqaro tashabbuslarni ilgari surib kelmoqda. BMT Bosh Assambleyasining “Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishni jadalshirishda parlamentlarning rolini kuchaytirish to‘g‘risida”gi rezolyutsiyasi qabul qilindi.

O‘zbekiston vakillari Osiyo Parlamentlari Assambleyasi, Markaziy Osiyo parlamentlari

forumi, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining Parlament Assambleyasi, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi Parlamentlar Assambleyasi va boshqa platformalarda faol ishtirok etmoqda.

Davlatimiz rahbari parlamentlararo hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlarini ko‘rsatib o‘tdi.

Jahonning turli mintaqalaridagi nizolar global va mintaqaviy tinchlik hamda xavfsizlikka jiddiy tahdid solayotgani ta’kidlandi. O‘zbekiston har qanday ziddiyat va qarama-qarshiliklarni faqat diplomatiya va tinch muzokaralar yo‘li bilan hal etishning qat’iy tarafdori ekani qayd etildi.

Bunday masalalarda xalqaro huquqning umume’tirof etilgan me’yorlari, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nizomi va rezolyutsiyalari asosida yechim topish muhim. Shu ma’noda, O‘zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkilotini universal va muqobil yo‘q yagona global tuzilma sifatida e’tirof etadi.

O‘zbekiston yetakchisi iqlim o‘zgarishlari doimo diqqat markazida bo‘lishi kerakligini ta’kidladi. Parij bitimi doirasida va uglerod neytralligiga erishish borasida olingan majburiyatlar to‘liq bajarilishi muhimligi qayd etildi.

Xotin-qizlar huquqlarini qat’iy qaror toptirish ijtimoiy taraqqiyotning asosiy shartlaridan biridir. Dunyo miqyosida ayol deputatlarning ulushi 1995-yildagi 11,3 foizdan joriy yilga kelib 27,2 foizga ko‘tarilgan.

So‘nggi yillarda yurtimizda BMT institutlari va Parlamentlararo Ittifoq bilan hamkorlikda Osiyo xotin-qizlar forumi va Jahon parlamentlari ayol rahbarlari sammiti samarali o‘tkazildi.

O‘zbekiston tashabbusi bilan ilgari surilayotgan BMT Bosh Assambleyasining “Osiyo xotin-qizlarining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy va madaniy-gumanitar faolligini oshirish to‘g‘risida”gi rezolyutsiyasi qo‘llab-quvvatlanishiga umid bildirildi.

Yoshlarning parlament faoliyati bilan bir qatorda jamiyat hayotining barcha jabhalarida to‘laonli ishtirok etishi uchun ularning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish o‘ta dolzarb masaladir. Shu bois, milliy parlamentlar hamda Ittifoq faoliyatiga yoshlarni faol jalb etish zarurligi ta’kidlandi.

Parlamentlararo Ittifoq tizimi doirasida Yoshlar parlamentlari global platformasini tashkil etish va uning ta’sis forumini O‘zbekistonda o‘tkazish taklif qilindi.

Har bir insonning ijtimoiy himoyaga bo‘lgan huquqlarini ta’minlash, xalqaro standart va me’yorlar asosida sifati xizmatlar ko‘rsatish ham ustuvor masala ekani qayd etildi.

O‘zbekiston Prezidenti anjuman ish-tirokchilarini shu yil sentabr oyida yurtimizda bo‘lib o‘tadigan kambag‘allikni qisqartirishga bag‘ishlangan xalqaro konferensiya ishida faol ishtirok etish uchun taklif qildi.

Davlatimiz rahbari sun’iy intellekt sohasida tizimli hamkorlikni kuchaytirishni bugungi zamonning o‘zi talab etayotganini ta’kidladi. Sun’iy intellekt dan foydalanish etikasi bo‘yicha namunaviy qonun ishlab chiqilsa, ushbu innovatsion huquqiy asos mazkur sohani samarali tartibga solishda barcha davlatlar uchun o‘ziga xos namuna bo‘ladi.

Bildirilgan barcha taklif va tashabbuslar Parlamentlararo Ittifoqning Strategiyasi maqsadlariga to‘la mos ekani qayd etildi.

So‘zining yakunida O‘zbekiston Prezidenti yubiley Assambleya ishiga hamda ishtirokchilariga katta yutuq va muvaffaqiyatlar tiladi.

O‘ZA

So‘z – xalqaro anjuman ishtirokchilariga



DO‘STLIK HAMDA O‘ZARO ISHONCH RUHI

O‘ZGARAYOTGAN DUNYODA TINCHLIK VA TARAQQIYOTGA ASOS BO‘LAJAK

Poytaxtimizda Parlamentlararo Ittifoqning 150-Assambleyasi bo‘lib o‘tmoqda. “Ijtimoiy taraqqiyot va adolat uchun parlament harakati” mavzusiga bag‘ishlangan anjumanda 140 ga yaqin davlatdan 2 mingdan ziyod delegat ishtirok etayotgani uning ahamiyati va o‘ziga xos nufuzidan dalolat beradi. Xalqaro anjumanda xorijlik delegatlar bilan bir qatorda mamlakatimiz parlamenti, davlat va nodavlat tashkilotlar vakillari, olim va ekspertlar ham qatnashmoqda. Ularning mazkur tadbirga oid fikr-mulohazalari bilan qiziqdik.

YOSHLARGA DOIR MUHIM TASHABBUSLAR ILGARI SURILDI

Sayyora ABDIKARIMOVA, Oliy Majlis Senati qo‘mita raisi o‘rinbosari:



— Oliy Majlis faoliyatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblangan parlamentlararo hamkorlik aloqalari yangi tahrirdagi Konstitutsiya hamda “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarga hamohang ravishda sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Oliy Majlisning xalqaro aloqalar geografiasiga tobora kengaymoqda. Jahon miqyosida O‘zbekiston milliy manfaatlarini ifoda etish, xorijiy davlatlar parlamentlari va xalqaro parlamentlararo tashkilotlar bilan hamkorlik rivojlanib bormoqda. Xalqaro maydonda mamlakatimizning tashabbuslarini ilgari surish borasida ulkan yutuqlarga erishilmoqda.

Yurtimiz tarixda birinchi marta BMTning Inson huquqlari bo‘yicha kengashiga a’zo

etib saylandi. O‘zbekiston BMT oliy minbaridan ilgari surgan global va mintaqaviy tashabbuslar dunyo hamjamiyati tomonidan katta qiziqish bilan qabul qilinmoqda. Parlamentlararo Ittifoqning 150-Assambleyasi mamlakatimizda o‘tkazilishi buning yana bir isbotidir.

Tadbirida davlatimiz rahbari parlamentlararo hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlarini ham ko‘rsatib o‘tdi. Jumladan, jahonda yuz berayotgan bugungi global

o‘zgarishlar Parlamentlararo Ittifoq va milliy parlamentlarimiz oldiga yangidan yangi vazifalar qo‘yayotgani qayd etildi. Bu borada yoshlarning parlament faoliyati bilan bir qatorda jamiyat hayotining barcha jabhalarida to‘laonli ishtirok etishi uchun ularning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish o‘ta dolzarb masala sifatida ilgari surilib, Parlamentlararo Ittifoq tizimi doirasida Yoshlar parlamentlari global platformasini tashkil etish va uning ta’sis forumini O‘zbekistonda o‘tkazish taklif qilindi.

O‘ZBEKISTON — DEMOKRATIK BOSHQARUV YO‘LIDAN DADIL ILGARILAYOTGAN MAMLAKAT

Bobur BEKMURODOV, “Yuksalish” harakati raisi:



— Prezidentimiz mazkur xalqaro anjumandagi nutqida qayd etganidek, xalqaro ahamiyatga ega bunday nufuzli tadbirning aynan yurtimizda o‘tkazilayotgani o‘ziga xos ramziy ma’noga ega. Bu O‘zbekistonning demokratik boshqaruv yo‘lidan ishonch bilan ilgariylayotgani, xalqchil parlament tizimi va fuqarolik jamiyatining izchil taraqqiy etib borayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, bu tadbir mamlakatimizda kechayotgan demokratik islohotlar jahon hamjamiyati tomonidan tan olinayotganining yaqqol tasdiqi’idir. Darhaqiqat, yurtimizda erkin fuqarolik jamiyatini shakllantirish, demokratik davlat barpo etish yo‘lida muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Natijada turli

sohalarda katta o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Masalan, birgina transport sohasini olaylik. 2017-yilda bu yo‘nalishda bitta rezident aviakompaniya bor edi, bugun ularning soni 16 ta. Avtomobil yo‘llari qurish va rekonstruksiya qilish hajmi 2017-yilda 6 ming kilometr bo‘lgan bo‘lsa, bugun 21,3 ming kilometri tashkil qilmoqda.

Respublika hududidan o‘tgan tranzit yuk tashish hajmi 2017-yildagiga nisbatan 1,6 barobar oshib, 2024-yilda 13,7 million tonnaga yetdi. Logistika samaradorligi indeksi xalqaro reytingida O‘zbekiston 2023-yili 139 ta davlat orasida 88-o‘rinni egalladi. 2016-yilda ushbu reytingda mamlakatimiz 118-o‘rinda qayd etilgandi.

Yurtimizdagi ochiqlik, kuchli investitsiya siyosati natijasida iqtisodiyotimiz ham barqaror o‘smoqda. Xususan, 2024-yilda yalpi ichki mahsulot hajmi 6,5 foiz oshib, 115 milliard dollarga yetdi. Xorijiy investitsiya 1,6 barobar o‘sib, qariyb 35 milliard dollarni tashkil qildi. O‘tgan yilning o‘zida qiymati 10 milliard dollarlik 240 dan ortiq yirik va o‘rta loyiha ishga tushdi.

Keyingi yetti yilda kiritilgan 120 milliard dollar investitsiya hisobiga 6 mingdan ortiq korxona ishga tushgan. Jami investitsiyalar hajmi 200 milliard dollarga yaqin. Eng muhim ko‘rsatkich — YIMdagi investitsiyalar hajmi 30 foizni tashkil qilmoqda. Tabiiyki, ushbu natijalar xalqimiz farovonligini oshirishga zamin yaratmoqda. Bu o‘zgarishlar bardavom bo‘lishi nafaqat mintaqamiz, balki butun dunyoda barqarorlikka zamin bo‘lajak.

O‘z safida 190 ga yaqin mamlakat parlamentini birlashtirgan Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley Assambleyasi ilk marta Markaziy Osiyo mintaqasi — Toshkent shahrida bo‘lib o‘tayotgani mamlakatimizdagi keng ko‘lamli demokratik islohotlarga bildirilgan yuksak ishonch, munosib baho hisoblanadi. Shu bilan birga, parlamentarizm va vakillik hokimiyatini rivojlantirish borasida erishilayotgan salmoqli natijalar e’tirofi hamdir.

“Yangi O‘zbekiston” muxbiri Bahor Xidirova yozib oldi.

O‘ZBEKISTONNING XALQARO ALOQALAR FAOL ISHTIROKCHISI, KO‘P TOMONLAMA YONDASHUVLAR TARAFDORI SIFATIDAGI HARAKATLARI YUKSAK BAHOLANMOQDA

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 5-9-aprel kunlari Toshkent shahrida bo‘lib o‘tayotgan Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley Assambleyasidagi nutqi xalqaro ekspertlar hamjamiyati tomonidan yuksak baholanmoqda.

Antonio ALONSO, San-Pablo universiteti Ijtimoiy tadqiqotlar instituti professori, Markaziy Osiyo mintaqasi bo‘yicha ekspert (Ispaniya):



— O‘zbekiston Prezidentining Parlamentlararo Ittifoqning 150-Assambleyasi ochilishidagi nutqi bilan tanishdim.

O‘zbekistonning keyingi yillarda erishgan keng ko‘lamli yutuqlari menda, ayniqsa, katta taassurot qoldirdi. Qisqa vaqt ichida mamlakatda parlament rolini kuchaytirishga qaratilgan 20 dan ortiq qonunlar qabul qilindi. Bu demokratlashirish va barqaror rivojlanish yo‘lidagi haqiqiy qadamdir.

E’tiborlisi, Oliy Majlis Qonunchilik palatasining vakolatlari 5 tadan 12 taga, Senat vakolatlari esa 14 tadan 18 taga oshirildi. Parlament institutsional salohiyatining bunday sezilarli darajada kengayayotgani yuksak e’tirofga sazovordir.

O‘zbekiston parlamentida ayollarning ulushi 38 foizga yerganini e’tirof etmaslikning iloji yo‘q. Mazkur raqamlar jahondagi o‘rtacha ko‘rsatkichdan yuqoridir. Bu gender tengligini ta’minlash borasidagi siyosiy irodaning yorqin dalilidir.

Yoshlar parlamentlarining global platformasini yaratish va uning ta’sis forumini O‘zbekistonda o‘tkazish taklifi juda muhim. Ayniqsa, 2021-yildan boshlab mamlakatda yoshlar parlamenti muvaffaqiyatli faoliyat yuritayotgani yoshlarning qonun ijodkorligida ishtirok etishi uchun real imkoniyatlar ochayotgani ham ramziy ma’noga ega.

O‘zbekistonning xalqaro maydondagi hissasini ham ta’kidlamochim. O‘zbekiston tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasining “Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda parlamentlarning roli” rezolyutsiyasining bir ovozdan qabul qilingani faol pozitsiyaning yana bir tasdiqi’idir.

Zamonaviy dunyo turli chaqiruvlar, jumladan, kambag‘allik, iqlim o‘zgarishi, sun’iy intellekt kabi katta muammolarga duch kelmoqda. Men Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan bildirilgan sun’iy intellekt dan foydalanish etikasi bo‘yicha qonunchilik bazasini yaratish zarurligi haqidagi taklifni to‘liq qo‘llab-quvvatlayman.

Umuman olganda, O‘zbekiston dadil va izchil olg‘a borish borasida namuna ko‘rsatmoqda. Ushbu tajriba o‘rganish va e’tirofga loyiqdir.

Go SYAOSYUN, Xitoy ijtimoiy fanlar akademiyasi Rossiya, Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo instituti professori:

— Prezident Shavkat Mirziyoyevning Parlamentlararo Ittifoqning 150-Assam-



bleyasidagi nutqi keng qamrovli bo‘lib, global xavfsizlikdan tortib, iqlim o‘zgarishi va ijtimoiy himoyagacha bo‘lgan keng ko‘lamli masalalarni qamrab oldi.

Uning parlament diplomatiyasining ahamiyati va global muammolarni hal qilishda parlamentlarning roliga alohida urg‘u berishi

jahondagi beqarorlik va noaniqlik sharoitida ayniqsa dolzarb. O‘zbekistonning xalqaro hamkorlikning faol ishtirokchisi, ko‘p tomonlama yondashuvlar tarafdori sifatidagi harakatlari yuksak e’tirofga sazovor.

O‘zbekistonning parlamentarizmini rivojlantirish, ayollar huquqlarini kengaytirish va yoshlarni siyosatga jalb etish borasidagi yutuqlari menda katta qiziqish uyg‘otdi. 2023-yilda yangilangan tahrirdagi O‘zbekiston Konstitutsiyasining qabul qilinishi va parlament vakolatlarining kengaytirilishi mamlakatning demokratik islohotlar va vakillik hokimiyatini mustahkamlashga intilishidan dalolat beradi. Parlamentda xotin-qizlar ulushi yuqoriligi va yoshlar parlamentlarining tashkil etilishi gender tengligi va yoshlarni siyosiy jarayonga jalb etish borasida erishilgan yutuqlarni yaqqol ifodalaydi.

O‘zbekiston yetakchisining kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha xalqaro konferensiya o‘tkazish to‘g‘risidagi taklifi barqaror rivojlanishga erishish sharoitida muhim amaliy ahamiyatga ega.

Mamlakatlarimiz bu borada faol tajriba almashmoqda. O‘zbekiston erishayotgan muvaffaqiyatlardan chin dildan mamnunmiz. Biz yaqindan hamkorlik qilishga tayyormiz.

Ilhom Shabanov, “Caspian Barrel” neft tadqiqoti markazi direktori (Ozərbaycan):



— Janubiy Kavkaz va Markaziy Osiyo mintaqalaridagi transport-logistika jarayonlari bo‘yicha mutaxassis sifatida O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning global va mintaqalararo tashabbuslari meni, ayniqsa, qiziqtiradi. Shu bois, O‘zbekiston Prezidentining Toshkentda bo‘lib o‘tayotgan Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley Assambleyasidagi nutqini katta e’tibor bilan kuzatdim.

Bugun butun dunyo parlament diplomatiyasining xalqaro munosabatlar tizimidagi yuksak o‘rni va qator global muammolarni hal etishga qo‘shgan hissasiga guvoh bo‘lmoqda. Bu galgi Assambleyaning “Ijtimoiy taraqqiyot va adolat uchun parlament harakati” mavzusi ham juda dolzarb. Prezident Shavkat Mirziyoyevning mazkur anjumanning ochilishidagi nutqi chuqur ramziy ma’noga ega. Chunki u qurolli mojarolar, ekologik ofatlar va iqtisodiy inqirozlar kabi dolzarb global muammolarni hal etishda parlamentlar o‘rtasidagi xalqaro hamkorlik muhimligini alohida ta’kidladi.

Qayd etish joizki, davlatimiz rahbarining nutqi ikki yil avval O‘zbekistonda Parlamentlararo Ittifoqning 150-Assambleyasini o‘tkazish to‘g‘risidagi tashabbusi har jihatdan amalga oshirilganidan dalolat beradi. Dunyoning 181 mamlakat parlamentlarini o‘z ichiga olgan ushbu nufuzli uyushma o‘zining oliy organi — Assambleya majlislarini faqat parlamentarizm va barqaror rivojlanish borasida ijobiy tajribaga ega mamlakatlarda o‘tkazadi. Ushbu jihatni inobatga oladigan bo‘lsak, mazkur Assambleyaning O‘zbekistonda ilk bor o‘tkazilishi jahon hamjamiyati tomonidan demokratik islohotlar va mamlakatimiz yetakchisi rahnamoligida parlamentarizmi rivojlantirish borasidagi sa’y-harakatlarning e’tirof etilganini tasdiqladi.

Global ekologik va oziq-ovqat muammolari bilan yaqindan tanish bo‘lgan mutaxassis sifatida, ayniqsa, Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan aytilgan raqamlar meni hayratda qoldirdi. Jumladan, so‘nggi 30 yil ichida jahon yalpi ichki mahsuloti hajmi 4,5 barobar oshdi. Biroq, afsuski, kambag‘allarning daromadlari deyarli o‘zgarishsiz qoldi. Agar bu tendensiya davom etsa, 2030-yilga borib dunyoda 575 million kishi kambag‘allikka yashaydi va 84 million bola ta’lim olish imkoniyatidan mahrum bo‘ladi.

Shu bois, O‘zbekiston Prezidentining mazkur holat iqtisodiyot va jamiyatga katta zarar yetkazayotgani, ijtimoiy-iqtisodiy institutlar faoliyatini zaiflashtirayotgani, pirovardida odamlarning imkoniyatlari cheklanayotgani haqidagi fikrlarini to‘liq qo‘llab-quvvatlayman. Shuningdek, O‘zbekiston yetakchisining bunday tengsizlikning asl sabablarini aniqlash va uning oqibatlariga qarshi kurashish zarurligi haqidagi chaqirig‘i ham o‘z vaqtida yangradi. Shubhasiz, bu har bir insonning ustuvor vazifasi bo‘lishi kerak.

“Dunyo” AA

Ra’no TURDIBOYEVA, kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vaziri o‘rinbosari:



— Davlatimiz rahbari Parlamentlararo Ittifoqning 150-Assambleyasida bugungi hayotimiz va kelajakka daxldor ko‘plab masalalar qatorida xotin-qizlar huquqlarini qat’iy qaror toptirish ijtimoiy taraqqiyotning asosiy shartlaridan biri ekanini alohida e’tirof etdi. Shunisi quvonarliki, xotin-qizlarning O‘zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy hayotidagi ishtirokini qo‘llab-quvvatlash, iqtisodiy huquqlari va imkoniyatlarini kengaytirish davlatimiz ijtimoiy himoya siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz va Mehnat kodeksining qabul qilingani ushbu yo‘nalishda qator muammolarni bartaraf etishga xizmat qilmoqda. Bu esa Jahon bankingning “Ayollar, biznes va qonun” indeksi hisobotida O‘zbekiston ko‘rsatkichi 11,9 ballga yuqorilashida o‘z samarasini berdi. Bugun mamlakatimiz mazkur indeksda

xotin-qizlar huquqlari va gender tenglik bo‘yicha muhim islohotlarni amalga oshirgan 5 ta davlat qatoriga kiritildi.

Albatta, bunday muhim natijalarga osonlikcha erishilayotgani yo‘q. Bu oxirgi yillarda inson manfaatini ko‘zlab amalga oshirilayotgan qat’iy va izchil islohotlarning



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz



Munosabat

Joriy yil 4-aprel kuni Samarqand shahrida Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida “Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi” birinchi sammiti bo‘lib o‘tdi. Tadbirda Yevropa kengashi Prezidenti Antoniu Koshta, Yevropa komissiyasi Prezidenti Ursula fon der Lyayen, Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev, Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov, Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon, Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov, shuningdek, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki hamda Yevropa investitsiya banki rahbarlari ishtirok etdi.

Sammitda Markaziy Osiyo davlatlari va Yevropa Ittifoqi o‘rtasidagi ko‘p qirrali munosabatlar va amaliy hamkorlikni rivojlantirish istiqbollari ko‘rib chiqildi. Xalqaro va mintaqaviy siyosatning dolzarb

jihatlari yuzasidan fikr almashildi. O‘zbekiston Prezidenti Markaziy Osiyo va Yevropa Ittifoqi hamkorligini mustahkamlash bo‘yicha yangi tashabbuslarni ilgari surdi.



MARKAZIY OSIYO – YEVROPA ITTIFOQI: MINTAQALARARO STRATEGIK HAMKORLIK YO‘LIDA

Yangi O‘zbekistondan Yangi Markaziy Osiyo sari

Prezidentimiz ushbu sammit oldidan “Euronews”ga bergan intervyusida ta’kidlaganidek, “Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi” formati — noyob hamkorlik platformasi bo‘lib, o‘lcham va institutsional qamrov jihatidan unga o‘xshashi mavjud emas”. Ushbu format 27 davlatni, jumladan, “Katta yettilik”ka a’zo uchta mamlakat — Germaniya, Fransiya va Italiyani birlashtirgan Yevropa Ittifoqi Markaziy Osiyo bilan mintaqalararo darajada tizimli hamkorlikni yo‘lga qo‘ygan eng yirik integratsiyaviy tuzilma hisoblanadi.

Yevropa Ittifoqi bilan hamkorlik iqtisodiyot va investitsiyadan tortib, barqaror rivojlanish, xavfsizlik va raqamli transformatsiyagacha bo‘lgan sohalarining keng majmuasini qamrab oladi. Yanada e’tiborlisi, mazkur format uzoq muddatli strategik ustuvor yo‘nalishlarga asoslangan.

Bu haqda so‘z borganda, avvalo, davlatimiz rahbari intervyu bergan — “Euronews” haqida muxtasar to‘xtalish lozim deb o‘ylaymiz. Yevropaning kecha-kunduz uzluksiz axborot uzatadigan ushbu mashhur telekanaliga 1993-yil yanvarda asos solingan.

Bugun “Euronews” dunyoda yuz berayotgan muhim voqealar haqida 13 tilda tezkor xabarlar, videolavhalar va audiosharhlar taqdim etib kelmoqda. Uning axborot tarqatish doirasi Yevropa, Afrika, Osiyo, Avstraliya, Shimoliy va Janubiy Amerika, shuningdek, Yaqin Sharq mintaqalaridagi 150 mamlakatni qamrab olgan.

Endi “Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi” birinchi sammiti mavzusiga qaytsak, Samarqandda bo‘lib o‘tgan mazkur sammit Markaziy Osiyo va Yevropa Ittifoqi mintaqalari hamkorlik munosabatlari rivojining burilish nuqtasi bo‘ldi, deya e’tirof



Akmal SAIDOV, Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi direktori, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati

degan noyob fenomenning mazmuni ham asli shunda mujassam bo‘lib, u xalqaro hamkorlikning prinsipial jihatidan yangi formatini shakllantirish uchun asos bo‘lib xizmat qilmoqda”.

Ikkinchi omil. Markaziy Osiyo va Yevropa Ittifoqi o‘rtasidagi munosabatlar ikki tomonlama hamkorlikdan — mintaqaviy strategik hamkorlikka tomon kengaymoqda. Gap shundaki, ayni vaqtga qadar mintaqalarimiz va shu mintaqalardagi davlatlar o‘rtasida ikki tomonlama aloqalar rivojlantirib kelinayotgan edi. Mana endi Markaziy Osiyo bilan Yevropa Ittifoqi o‘rtasida hamkorlik robitasi, ko‘prigi tiklandi.

Bu ulkan tarixiy voqea aslida ham Markaziy Osiyo mintaqasi xalqaro munosabatlarning mustaqil subyekti maqomida o‘zini namoyon

Ya’ni Markaziy Osiyo endi tarixning chetida emas, balki o‘z strategik kun tartibini shakllantirayotgan, jadal rivojlanayotgan mintaqaga aylanmoqda. Siyosiy iroda, yuqori darajadagi o‘zaro ishonch va qo‘shma iqtisodiy tashabbuslar mintaqada barqaror rivojlanish uchun yangi imkoniyatlar yaratdi.

Bu haqda BMT Bosh kotibi bildirgan fikrlar ham tahsinga loyiq. Antoniu Guterriushning fikricha, bir paydlar Markaziy Osiyoda tarqoqlik keng ildiz o‘tgan edi. Bugun esa mintaqada yangicha muhit yaratildi. Bu, albatta, do‘stlik, hurmat va masalalarni hamjihatlikda ko‘rib chiqish, mavjud qiyinchiliklarni birgalikda yengib o‘tishga asoslangan muhit bo‘ldi.

BMT Bosh kotibi e’tirof etganidek, “Shu o‘rinda Prezident Shavkat Mirziyoyevni faoliyati davomida mintaqadagi ko‘priklarni o‘rnatuvchi tashabbuskor, tinchlik elchisi, desam, mubolag‘a bo‘lmaydi. Ayni vaqtda adolatga asoslangan farovonlikni tashkil qilish va uni o‘rnatish bo‘yicha juda faol ish olib bormoqda. Bu Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlariga to‘la uyg‘un”.

Sammit arafasida Prezidentimiz ushbu nufuzli anjumaning yuqori martabali mehmonlari bilan yuzma-yuz suhbatlashdi. Xususan, Yevropa kengashi Prezidenti Antoniu Koshta va Yevropa komissiyasi Prezidenti Ursula fon der Lyayen davlatimiz rahbari bilan uchrashuv chog‘ida yangi O‘zbekistonda barpo etish bo‘yicha amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar dasturi, shuningdek, Markaziy Osiyoda yaxshi qo‘shnichilik, ishonch va sheriklikni mustahkamlash borasidagi siyosatni yuksak baholadi va qat’iy qo‘llab-quvvatlashini bildirdi.

Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi: ikki tomonlama hamkorlikdan mintaqaviy hamkorlikka

Mintaqa markazida joylashgan mamlakatimiz Markaziy Osiyoning barcha davlatlari bilan umumiy chegaraga ega. Hozirgi O‘zbekiston hududining asosiy qismi Amir Temur saltanati tasarrufida bo‘lgan. O‘rta asrlardagi Movarounnahr sarhadlari bilan bugungi Markaziy Osiyo mintaqasi qamraydigan chegaralar deyarli bir xil.

Sohibqiron saltanati kuch-qudratga to‘lgan davrlarda O‘rta yer dengizi va Qora dengizdan — Qashqargacha, Kavkaz va Volgabo‘yi dastlaridan — Hindistonning shimoliy hududlarigacha bo‘lgan keng makonni qamragan. Amir Temur saltanati, temuriylar davlati tanazzulga yuz tutganidan, to Markaziy Osiyoda mustaqil davlatchilikning qayta shakllanish davri boshlanishiga qadar bo‘lgan oraliq davr qariyb 400 yilni tashkil etadi.

Yanada sodda qilib aytganda, ulug‘ Sohibqiron o‘z saltanati bilan Osiyo va Yevropa o‘rtasida yagona geosiyosiy makon yaratishga musharrarf bo‘lgan. Movarounnahrning oliy hukmdoridan vorislariga davlatni qat’iy tartib-qoida va

tuzuklar asosida jipslashtirish, saltanat atrofidagi ulkan geostrategik makonda mustahkam intizom va manfaatdorlik negizida ichki siyosiy beqarorliklarning oldini olish borasida beqiyos boy nazariy-amaliy tajriba meros bo‘lib qoldi.

Bugungi yangi geosiyosiy sharoitda Markaziy Osiyo Buyuk ipak yo‘li davrida ekanligini o‘rnatish — Sharq va G‘arb, Shimol va Janubni bog‘lovchi ko‘priklarni, turli iqtisodiy manfaatlar chorrahasi maqomini yana o‘ziga qaytarmoqda. Shunday ekan, O‘zbekiston Prezidenti bugun Amir Temur orzularini tom ma’noda ro‘yobga chiqarayotgani haq gap.

Binobarin, XX asrning oxirgi o‘n yilligida o‘z mustaqilligini e’lon qilgan O‘zbekistonda izchil joriy etilayotgan ichki va tashqi siyosat mazmun-mohiyatida mintaqamiz, xalqimiz va millatimiz tarixini bilish hamda chuqur anglash masalasi joriy demokratik islohotlar, yangilanish va rivojlanish strategiyasining muhim tamoyili hamda intellektual mexanizmi sifatida o‘z tajassumini topgan. Xalqimizning “Og‘a-



ini inoq bo‘lsa, har qanday ish yurishadi” degan dono naqli nechog‘liq hayotiy ekanini keyingi davrda ulkan mintaqamizda ro‘y bergan “jarayonlarni qayta ishga tushirish” mexanizmi barcha uchun birdek manfaatli bo‘lganini yaqqol ko‘rsatib berdi.

Ayniqsa, dunyodagi hech bir mamlakatda so‘nggi yillarda Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbuslari asosida yangi O‘zbekistonda izchil va keng ko‘lamda tatbiq etilayotgani kabi g‘oyat qamrovdor islohotlar amalga oshirilmagan. O‘zbekiston liderining yaxshi qo‘shnichilik siyosati, ta’bir joiz bo‘lsa, mintaqaviy siyosatga doir oqilona doktrinasini tufayli Markaziy Osiyo davlatlari ilk bor bugun dolzarb bo‘lgan mintaqaviy masalalarni ochiq va samimiy muhokama qila boshladi.

Jumladan, birinchi navbatda, mintaqamizda davlatlararo muloqot tiklandi. Suv, chegara muammolariga umumiy qarashlar asosida ijobiy yechim topildi. AQSHlik ekspert Jennifer Brik Murtazashvili qayd etganidek, “Markaziy Osiyoni boricha ko‘rish vaqti keldi. Bu endi postsovet hududi emas. U — Yevroosiyo”. Aslida, mintaqamizdagi mustahkam siyosati tufayli xalqaro lug‘atda “Markaziy Osiyo ruhi” degan ibora paydo bo‘lgani bunday e’tiroflar naqadar asosli ekanini tasdiqlab turibdi.

Bu o‘rinda, avvalo, Markaziy Osiyoda konstruktiv, yaxshi qo‘shnichilikka asoslangan va o‘zaro manfaatli munosabatlarni bosqichma-bosqich barpo etish haqida so‘z bormoqda. Xuddi shu yondashuv tufayli so‘nggi yillarda Markaziy Osiyo tubdan o‘zgarгани, yangi qiyofa kash etgani — o‘zaro ishonch va har tomonlama hamkorlik maydoniga aylangani bugun hech kimga sir emas.

Prezidentimiz so‘zlari bilan aytganda, “Mintaqa mamlakatlari o‘rtasida ishonch va yaxshi qo‘shnichilik mustahkamlanmoqda, keng ko‘lamli hamkorlik va kooperatsiya aloqalari

kengaymoqda. Bundan yetti-sakkiz yil avval buning uchun hatto sharoit ham yo‘q edi. Ba’zi mamlakatlar o‘rtasidagi chegaralar yopiq edi. Na savdo, na tranzit, na biznes, hech qanday gumanitar almashuvlar yo‘q edi. Munosabatlar shunchaki muzlatib qo‘yilgandi. O‘shanda hech kim yaqin kelajakda biz Yevropa yetakchilari bilan muzokaralarda mintaqamizni birgalikda namoyon etishimizni tasavvur ham qila olmas edi”.

Bunga qadar mintaqamiz mamlakatlari “Markaziy Osiyo +” formatlari doirasida davlatlar va iktita mintaqaviy tashkilot bilan faol hamkorlik qilib kelayotganini ta’kidlash lozim. Natijada oxirgi yetti yilda Markaziy Osiyo mamlakatlarining Yevropa Ittifoqi bilan savdo aylanmasi to‘rt barobar oshib, 54 milliard yevroni tashkil etdi.

O‘z navbatida, Samarqand sammitida Yevropa Ittifoqi bilan Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasida strategik sheriklikning yo‘lga qo‘yilishi mintaqalararo hamkorlik va o‘zaro bog‘liqlik rivojida yangi yo‘nalishlarni ochmoqda.

kiritish o‘zaro hamkorligimizning ustuvor mezon bo‘lishi lozim.

Uchinchi ustuvor yo‘nalish — sammit davomida strategik mineral resurslar sohasida hamkorlik va investitsiyalarni chuqurlashtirish bo‘yicha qaror qabul qilindi.

To‘rtinchi ustuvor yo‘nalish — “yashil” energetika va ekologik barqarorlikka yo‘naltirilgan investitsiyalar strategik ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda.

Beshinchi ustuvor yo‘nalish — inson kapitaliga investitsiyalar ta’lim va madaniy-gumanitar sohalaridagi almashuvlarni kengaytirish imkonini beradi.

Bundan tashqari, “Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi” formatidagi birinchi oliy darajadagi rasmiy uchrashuv yakunlangach, yetakchilar birgalikda Orol madaniyat sammiti ekspozitsiyasiga tashrif buyurdi. Ko‘rgazmada Orol ekotizimini tiklash, hududning madaniy merosini asrab-avaylash va barqaror rivojlanishiga ko‘maklashishga qaratilgan noyob tashabbuslar namoyishi etildi.

Sammitning yuqori martabali mehmonlari shu kuni Markaziy Osiyo duch kelayotgan zamonaviy ekologik tahdidlarga bag‘ishlangan Samarqand iqlim forumi yalpi sessiyasida ham ishtirok etdi. Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo davlatlari yetakchilari, BMT nomidan qatnashgan ishonchli hamkorlarimiz, xalqaro moliya institutlari, global va milliy ekologik tashkilotlar vakillarining ushbu tadbirdagi ishtiroki barqaror rivojlanishning eng dolzarb masalalari bo‘yicha samarali yechimlar izlashda birgalikda sa’y-harakatlar olib borishga sodiqlikning hayotiy namunasi bo‘ldi.

Davlatimiz rahbari Samarqand xalqaro iqlim forumida bu muhim omilga alohida e’tibor qaratib, nutqini mana bu so‘zlar bilan yakunladi: “Bugungi kunda bizning vazifamiz — kelajak avlodlar barqaror, xavfsiz va farovon dunyoda yashashi uchun barcha chora-tadbirlarni ko‘rishdan iborat. Buning uchun muloqotlarni mustahkamlash, umumiy egzu maqsadlar yo‘lida birlashgan barcha davlatlarning sa’y-harakatlarini uyg‘unlashtirish zarur”.

Xulosa qilib aytganda, “Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi” birinchi sammitining asosiy yutug‘i, shubhasiz, tadbir yakunida ikki mintaqa o‘rtasida strategik sheriklik munosabatlari o‘rnatishni nazarda tutuvchi qo‘shma deklaratsiya qabul qilindigandir.

Qo‘shma deklaratsiyada, jumladan, tinchlik, xavfsizlik va demokratiya, taraqqiyot va farovonlik, ekologik barqarorlik, “yashil” iqtisodiy rivojlanish va iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish, oziq-ovqat va energiya xavfsizligini ta’minlash yo‘lida mintaqalararo hamkorlikni rivojlantirish masalalari ko‘zda tutilgan. Markaziy Osiyo mintaqasidagi har qaysi mamlakat o‘zaro hamkorlikning muayyan sohalarida shu vaqtgacha erishgan natijalar va kelgusidagi rejalari alohida qayd etilgan.

Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo yetakchilari tomonidan qonun ustuvorligi, inson huquqlari va asosiy erkinliklarni rag‘batlantirish hamda himoya qilish barcha uchun birdek muhim fundamental qadriyat ekan ta’kidlangan. Bu o‘rinda, albatta, fikrni ifoda etish erkinligi va jamoat birlashmalariga uyushish huquqlari ta’minlash, fuqarolik jamiyati va mustaqil ommaviy axborot vositalari uchun sog‘lom muhit yaratish, huquq himoyachilarini muhofaza qilish, ayollar, bolalar va mehnat migrantlari huquqlarini hurmat qilish — har ikki mintaqa munosabatlarning tub negizini tashkil etishi haqida so‘z bormoqda.

Qo‘shma deklaratsiyada, shuningdek, “Yevropa Ittifoqi — Markaziy Osiyo” fuqarolik jamiyati forumini o‘tkazish tashabbusi ma’qullangan. Samarqand shahrida “Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi” birinchi sammitini muvaffaqiyatli tashkil etgani uchun O‘zbekiston hukumati minnatdorlik izhor etilgan.

Yana bir muhim natija: O‘zbekiston Prezidenti ishonch bilan ta’kidlaganidek, “Yevropaning yetakchi institutlari va moliya tashkilotlari rahbarlari Markaziy Osiyoning umumiy pozitsiyaga ega ekaniga, ishonchli va mas’uliyatli sherik sifatida keng ko‘lamli hamkorlikka tayyor ekaniga amin bo‘lishdi”.

etilayotgani bejiz emas. Bu yuksak bahoning mohiyatini, fikrimizcha, quyidagi ikkita muhim omil bilan izohlash mumkin.

Birinchi omil. Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo mintaqalari o‘rtasidagi aloqalar chuqur tarixiy ildizlarga ega. Sohibqiron Amir Temur hazratlari bilan Yevropa qirollari o‘rtasidagi necha yuz yillik tarixga ega qimmatli diplomatik yozishmalar shundan dalolat beradi. Ajdodlarimiz o‘sha olis asrlardayoq mintaqalarimiz o‘rtasida keng ko‘lamli hamkorlik munosabatlari shakllantirishga intilgan.

Shu jihatdan “Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi” birinchi sammiti xalqlarimiz va davlatlarimizning ana shu tarixiy orzu-istaklari tom ma’noda ro‘yobga chiqayotganining o‘ziga xos ifodasi bo‘ldi. Bu o‘rinda sammit aynan Samarqandda — Amir Temur saltanatining yuragi bo‘lgan fusunkor shahri azimda o‘tkazilganida ham yorqin ramziy ma’no mujassam.

Zero, ushbu mangu navqiron va qadimiy shahrimiz azaldan “Yer yuzining sayqali”, “Musulmon dunyosining gavhari”, “Sharqning jannati” kabi turfa nomlar bilan ulug‘lab kelinadi. Qolaversa, yaqin tarixda AQSHning sobiq davlat kotibi azim shahrimizni “Samarqand — jahon poystaxti”, deya ta’riflagani bejiz emas.

O‘zbekiston Prezidenti ta’biri bilan aytganda, “Samarqanddan turib qaralganda, dunyo tarqoq emas, balki yaxlit va bo‘linmas bo‘lib ko‘rinadi. “Samarqand ruhi”



Davlatimiz rahbarining dunyo miqyosida ilgari surayotgan tashabbuslari zahirida atrof-muhitni asrash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, global iqlim o'zgarishlariga moslashish va jahon xalqlari bilan birgalikda unga qarshi kurashishda sa'y-harakatlarni muvofiqlashtirish maqsadi mujassam.

2025-yilning yurtimizda Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yili deb e'lon qilingani ana shu maqsad yo'lidagi muhim qadamdir.



Abdulla XURSANOV,
Olmaliq kon-metallurgiya kombinati direktori

Bugun Olmaliq kon-metallurgiya kombinatidagi chora-tadbirlar, avvalo, inson salomatligi, tabiat sofligini saqlashga hamda ishlab chiqarish sohaslarining atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytirishga qaratilgan. Zero, sanoat rivojlanishi iqtisodiyotga ijobiy ta'sir ko'rsatsa-da, tabiatga jiddiy zarar yetkazishi mumkin. Zavod va fabrikalarning texnologen chiqindilari, havo va suvning ifloslanishi, yer resurslarining kamayishi — bularning barchasi ekologik muammolarni keltirib chiqaradi. Shu sababli sanoat korxonalari uchun atrof-muhitni muhofaza qilish choralarini ko'rish ustuvor vazifalardan biridir.

Sanoat korxonalari ekologik me'yorlarga, qolaversa, xalqaro va mahalliy ekologik standartlarga doimiy ravishda rioya qilishi lozim. Bu tabiatni muhofaza qilish bilan birga, korxonaning barqaror rivojlanishiga ham yordam beradi. Yangi ekologik texnologiyalardan foydalanish, energiya tejovchi va ekologik toza texnologiyalarni o'llash ishlab chiqarish jarayonida resurslarni tejaydi va tabiatga zararni minimallashtiradi.

Bugun har bir yirik sanoat korxonasi atrof-muhitga katta ta'sir ko'rsatishi sababli ESG barchar rivojlanish tamoyillari va maqsadlari strategiya va asosiy biznes jarayonlarining xalqaro integratsiya qilinishi o'ta muhim.

Joriy yil fevralda Sustainable Fitch reyting agentligi tomonidan ESG tashqi audit ishlari o'tkazilib, Olmaliq kon-metallurgiya kombinati faoliyatining barqarorligi, ijtimoiy mas'uliyati, asosiy, ekologik xatarlarni oldindan baholash va oldini olishdagi hisobotlari Yevropaning yirik korxonalari o'rtasida yuqori reytingda baholandi.



HAMMAMIZNING KELAJAGIMIZGA XIZMAT QILADIGAN XAYRLI ISHLAR

OKMKning xalqaro ESG reytingi yuqori baholandi

Erishilgan natijalar kombinatda ishlab chiqarilayotgan qimmatbaho metallarni ichki va tashqi bozorlarda (London Stock Exchange) yuqori narxlarda sotish imkonini beradi. Shuningdek, 2030-yilgacha ma'danlarni qayta ishlashni 40 million tonnadan 160 million tonnaga chiqarishda tashkil etilayotgan yangi mis boyitish fabrikalari — MOF-3, MOF-4, MOF-5 hamda yangi mis eritish zavodi qurilishiga imtiyozli “yashil” moliyalashtirishni (responsible financing) jalb qilish jozibadorligini oshiradi.

Mazkur ko'rsatkichlar kombinatda qisqa muddatda qilingan modernizatsiya ishlari mahsulidir.

Modernizatsiya — taraqqiyot garovi

Ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiyalash, albatta, mehnat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, yangi energiya samarador va ekologik xavfsiz texnologiyalarni qo'llashga yo'l ochadi. So'nggi yillarda Rux zavodida o'tkazilgan modernizatsiya jarayonida velslash sexidagi gorizontall ventilyatsiya va aspiratsiya tizimlari to'liq ta'mirlandi. Kuydirish sexida changni tozalovchi qo'shimcha qopli filtr uskunalar o'rnatildi. Shu tariqa tozalash uskunalarining samaradorligi 85 foizdan 99,5 foizga ko'tarildi.

2024-yil Rux zavodida yangi maydalash uchastkasi qurilishi hisobiga 130 ming tonnadan ziyod ishlab chiqarish texnologen chiqindisi — mis klinteri qayta ishlanib, tarkibidan rangli metallar ajratib olindi. Qolgan temir tarkibli chiqindilar sement zavodlariga ikkilamchi xomashyo sifatida yuborilmoqda.

Sulfat kislotasi sexining ishqorli suvni tozalash inshooti kapital ta'mirlanib, tozalangan suvni qayta texnologiyada ishlatish aylanma tizimi tashkil etilib, oqova tashlanmani relyefga tushirmaslik choralarini ko'rildi. Inshoot atrofida yillar davomida 2000 kub metrdan ortiq ohakli shlam chiqindisi to'plangan quyqa maydoni rekvitativatsiya qilindi.

Ayni paytda metall olish jarayonida atmosferaga ajralib chiqadigan SO₂ zararli gazini qayta ishlash orqali yillik 200 ming tonna sulfat kislotasi ishlab chiqarish quvvatiga ega yangi 6-sulfat kislotasi sexini qurish ishlari jadval davom etmoqda. Ushbu sex 1967-yilda qurilgan va bugun ma'nan eskirgan, quvvati



30 ming tonna bo'lgan sulfat kislotasi sexining atmosferaga tashlanmasiga to'liq barham beradi.

Mis eritish zavodida 2024-2025-yillarda 4 ta konvertor bo'limi to'liq rekonstruksiya qilindi. Natijada metall quyish jarayonida chang-gazning atmosferaga chiqishining oldi olindi.

Joriy yil fevralda eritish agregatlari chang-gaz quvurlari va elektr filtr uskunasi, Vanyukov pechi va 3- va 4-sulfat kislotasi sexlari hamda kislorod mash'alali pechining chang-gazni tutib qolish qurilmalarini ta'mirlash hisobiga uskunalarining samaradorligi 99,5 foizga yetkazildi. Natijada atmosferaga texnologik gaz chiqarib yuborilishi 12,8 ming tonnagacha qisqardi.

So'nggi 5 yilda innovatsion yechimlarni qo'llagan holda barcha konvertorlarda issiqlikni qayta tiklovchi moslamalar o'rnatilib, energiya va yoqilg'i xarajati 30 foiz kamaydi.

Bug' qozonlarini germetik qoplash hisobiga eritish pechlaridan chiqayotgan texnologik gaz 100 foiz sulfat kislotasi ishlab chiqarish sexiga yo'naltirilmoqda. Shuningdek, qurilishi boshlangan yangi metallurgiya majmuasida atmosferaga salbiy ta'siri kam bo'lgan zamonaviy “Flash Smelting” hamda “Flash Converting” texnologiyalari qo'llanadi. Bunda mis eritish jarayonida hosil bo'ladigan SO₂ gaz to'liq sulfat kislotasi ishlab chiqarishga yo'naltiriladi. Yangi pechlar ishga tushirilishi evaziga ma'nan eskirgan yallig' qaytarish pechi ishlab chiqarish zanjiridan uzilib, faoliyati to'xtatiladi.

Yillik sulfat kislotasi ishlab chiqarish quvvati 1 million 800 ming tonna bo'lgan va 2027-yilda ishga tushirilishi mo'ljallanayotgan SK-5 sulfat kislotasi sexi qurilishi hisobiga atmosferaga chiqayotgan 172 ming tonna oltingugurt ikki oksidi tashlanmasi hajmi deyarli 100 foiz kamayadi. Atmosferaga chiqish xalqaro standartlarga mos ravishda 0,5 foizdan oshmaydi.

Atmosferaga tashlamalarni monitoring qilish maqsadida SK-4 sulfat kislotasi sexiga Yaponiyaning chang-gaz tashlamalarini avtomatik tahlil qiluvchi HORRIBA avtomatik tahlil uskunasi o'rnatilib, ma'lumotlar yagona bazaga integratsiya qilinmoqda.

Mis boyitish fabrikasidagi modernizatsiya ishlari ham samara bermoqda. Birinchi maydalash sexidagi 24 ta zamonaviy aspiratsiya va ventilyatsiya tizimi to'liq yangilandi. Ikkinchi mis boyitish fabrikasidagi 55 ta ventilyatsiya va 103 ta aspiratsiya tizimida joriy ta'mirlash ishlari bajarildi. Natijada uskunalarining samaradorligi 99,5 foizga yetkazildi.

2024-yilda mis eritish jarayonida hosil bo'lgan 680 ming tonna toshqol chiqindisi mis boyitish fabrikasida qayta ishlandi. Tarkibidan qimmatbaho metallar ajratib olingan, qolgan 391 ming tonna temir tarkibli chiqindi ikkilamchi xomashyo sifatida sement zavodlariga realizatsiya qilindi.

Shuningdek, kombinat ishlab chiqarish hududi va sanitar-himoya zonalarida chang-

gaz miqdorini onlayn aniqlovchi 14 ta gazoanalizator o'rnatilib, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi bilan birgalikda doimiy monitoring olib borilmoqda.

E'tiborlisi, kombinatning barcha obyektida tabiiy resurslar — suv va energiya tejamlorligi doirasida keng ko'lamli chora-tadbirlar ko'rilmogda. Misol uchun, mis boyitish fabrikasining aylanma suv ta'minotidagi nasos qurilmalarida germetik ta'mirlash ishlari bajarilib, suv ta'minotidagi yo'qotishlar to'liq bartaraf etildi. Har bir quvurga suv sarfini avtomatik hisoblash uskunalar o'rnatildi.

Kombinat korxonalarida suv tozalash inshootlari samaradorligini oshirish va oqova suv tashlamalari me'yoriy ko'rsatkichini ta'minlash uchun Angren kon boshqarmasi Ko'chbulok konida hosil bo'layotgan yer osti ishqorli suvi kimyoviy suv tozalash inshootining relyefga tushuvchi oqova suv tarkibi belgilangan me'yoriy ko'rsatkichdan oshmasligi yuzasidan zamonaviy texnologiyalar va xorijiy tajriba o'rganilib, Finlyandiyaning xavfli sanoat oqova suvini tozalashga ixtisoslashgan EPSE OY kompaniyasi bilan muzokaralar o'tkazilmoqda.

Loyihani amalga oshirish natijasida Angren kon boshqarmasi konlarida hosil bo'lgan oqova suvni tozalash inshootida oyiga 25-30 ming kub metr suv tozalanib, relyefga chiqarib yuboriladi va atrof-muhitga zararli ta'siri kamaytiriladi. Ohak sarfi va cho'kmasi hozirgacha nisbatan

55 foiz (50 ming tonna) kamroq bo'ladi. Pilot loyiha qiymatining bir qismi Finlyandiya hukumati granti hisobidan qoplanmoqda.

Energiya tejamlorligi va qayta tiklanuvchi energetika tatbiq etilishi — davr talabi

Yana bir dolzarb masala — ekologik xatarlar ehtimolining oldini olish, issiqxona gazi miqdorini keskin kamaytirish, global iqlim isib borishiga barham berish, ishlab chiqarish quvvatini kamaytmagan holda energiya samarador texnologiyalarni joriy etish kombinatning doimiy kun tartibida turibdi.

Bugun obyektlarimizda qariyb 5 mingta quyosh suv isitish qurilmasi o'rnatilgan. Ular bir kunda 724 ming litr suvni isita oladi.

Yilning aprel-oktabr oylarida issiq suvga ehtiyoj ushbu qurilmalar hisobiga to'liq qoplanadi. Bu yiliga 1,7 million kub metr tabiiy gaz yoki 12,4 million kilovatt-soat elektr energiyasini tejash imkonini beradi. Shu bilan birga, kombinat obyektlarida 507 ta quyosh suv isitish qurilmasi o'rnatilgan. Bu yiliga 890 ming kilovatt-soat elektr energiyasini tejashga xizmat qiladi. 2025-yilda Xondiza, Chodak va Yoshlik-1 konlarida 95 ta quyosh suv isitish qurilmasi o'rnatiladi.

PricewaterhouseCoopers kompaniyasi bilan ishlab chiqarish jarayonida atmosferaga chiqayotgan issiqxona gazi tashlamasini hisoblash va kamaytirish yuzasidan zarur choralar belgilab olindi.

Mazkur vazifalarga hamohang ravishda kombinatda rangli va qimmatbaho metallarni ishlab chiqarish jarayonida energiya samaradorligini muvofiqlashtirib boruvchi ISO 50001 xalqaro standarti, ekologik barqarorlikni talab etuvchi menejment ekologik boshqaruvi ISO 14001 xalqaro standarti tizimi joriy etildi. Mehnat xavfsizligi standarti 45001, xatarlarni boshqarish 3100 xalqaro standartlariga ham amal qilgan holda faoliyat yuritilmoqda.

Olmaliq yashil sanoat shahriga aylanadi

Olmaliq — sanoat shahri. Shahar va unga chegaradosh hududlarda istiqomat qiluvchi mahalliy aholining salomatligi muhofazasi kombinatning bosh maqsadlaridan. Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish, tabiiy boyliklarni asrash yo'nalishidagi kompleks vazifalar faoliyatimizning uzviy ajralmas qismidir.

Bu borada mamlakatimiz miqyosida keng quloch yo'yan “Yashil makon” va “Yashil belbog'” loyihalarini muhim o'rinda egallaydi. Loyihalar doirasida kombinat tomonidan 2024-yilning bahor-kuz mavsumida 1,5 million tup mevali va xushmanzara ko'chat ekildi. Joriy yilda bu ishlar davom ettirilmoqda. Ko'chatlarni ekish barobarida parvarish qilish ishlariga ham katta e'tibor qaratilgan. “Yashil makon” umummiylly loyihasi bir yillik tadbir emas. Shuning uchun ham kombinat tomonidan hududning iqlimiga mos, kam suv talab qiladigan ko'chatlarni tanlab, yetishtirish uchun ko'chatxonalar barpo etilmoqda.

Obodonlashtirish va yashil makonlar yaratish — insoniyatning kelajagi uchun zarur. Daraxtlar nafaqat tabiiy resurslarni saqlashga yordam beradi, balki hayot sifatini oshirishda ham muhim. Shu bois, “Yashil makon” loyihasi hammamizning kelajagimiz uchun amalga oshirilayotgan xayrli ishdur.

Bir yoqadan bosh chiqarib, daraxt va gul ko'chatlarini ekib, parvarishlab borsak, albatta, kelajakda Olmaliqni yashil sanoat shahriga aylantira olamiz. Qad rostlayotgan zavod va fabrikalarimiz yonida yam-yashil bog'lar ham bo'y cho'zadi.



Kun mavzusi

OpenBudget

O'zbekiston Respublikasi

"Ochiq Budjet" Portali

Iqtisodiyot va moliya vazirligi xabariga ko'ra, mazkur bosqich 14-aprelgacha davom etadi. Shundan so'ng 15-20-aprel kunlari loyihaning saralash, 21-30-aprelda esa ovoz berish bosqichi bo'lib o'tadi. Yakunda eng ko'p ovoz to'plagan loyihalar davlat byudjetidan moliyalashtiriladi. Aholi davlat byudjeti mablag'ining muayyan qismi hududlarni ko'kalamzorlashtirishga sarflanishida bevosita ishtirok etadi.

“Mening bog'im” loyihasi yurtimiz bo'ylab yashil bog' va yashil jamoat parklarini tashkil qilishga qaratilgan tashabbuslarni o'z ichiga oladi. Bunda taklif etilgan loyihalar jamoatchilik fikri asosida shakllantirilib, tegishli tartibda ovozga qo'yiladi. G'oliblar aniqlangach, eng ko'p ovoz olgan bog' yoki jamoat parkini moliyalashtirish boshlanadi.

Bu jarayonni “Tashabbusli budjet” orqali ko'pchilik yurtdoshimiz yaxshi biladi. Ana shunday loyihalarda ishtirok etish ko'nikmasi aholi orasida shakllanib bormogda. Asosiy, bu kabi loyihalar odamlarni yagona maqsad atrofida birlashtirib, o'z hududi rivoji uchun birga harakat qilishga chorlamogda.

— “Mening bog'im” loyihasiga ilk bor 2024-yil martda start berildi va birinchi mavsum uchun davlat byudjetidan 50 milliard

“Ochiq budjet” axborot portali orqali yurtdoshlarimiz tomonidan turli tashabbuslar ilgari surilib, loyihalarga ovoz berish jarayoni davom etmoqda. Joriy yil 21-martda “Tashabbusli budjet” loyihasi g'oliblari va davlat byudjetidan ajratiladigan mablag' miqdori ma'lum qilingan edi. Shu kunlarda ochiq portaldan yig'algan navbatdagi — “Mening bog'im” loyihasining joriy yilgi mavsumiga ham start berildi hamda 5-apreldan loyiha kiritish bosqichi boshlandi.

MENING BOG'IM

LOYIHANING JORIY YILGI MAVSUMIGA START BERILDI

so'm ajratiladi, — deydi Iqtisodiyot va moliya vazirligi bo'lim boshlig'i Habibullo Hamidov.

Jarayon shu bilan to'xtab qolmadi. Vazirlar Mahkamasining tegishli qaroriga ko'ra, “Yashil makon” umummiylly harakati doirasida davlat byudjetidan har yili ajratilgan mablag'ning 50 foizi aynan “Ochiq budjet” portali orqali keng jamoatchilik fikri asosida ishlab chiqilgan “Mening bog'im” loyihalarini moliyalashtirishga yo'naltiriladi. Hududlarda mahalliy hokimliklar tomonidan yashil bog', jamoat parklari, dam olish maskanlari uchun bir nechta joy tanlanib, platformaga kiritiladi. Bir hudud bo'yicha kelib tushgan loyihalar bir nechta bo'lsa, birinchi taklif kiritgan fuqaroning taklifi inobatga olinadi. G'olib loyihalar ovoz berish bosqichidan so'ng aniqlanadi. Har bir taklif miqdori 250 million so'mni tashkil qiladi.

Hududlar qanday tanlanadi?

O'tgan yili ilk bor o'tkazilgan loyiha 23-iyundan 7-iyulga qadar davom etib, 215 ta loyiha g'olib deb topilgandi. Bunda yurtimiz bo'ylab 53 mingdan ortiq ovoz berilgan. G'olib loyihalarini moliyalashtirish uchun esa 48,6 milliard so'm ajratilgan.

Jarayonda fuqarolarning o'zi faollik ko'rsatgani e'tiborga loyiq. Xususan, Samandar Rajabov kiritgan tashabbus asosida Buxoro viloyati Romitan tumani “Afrosiyob” MFY hududida uzoq yillik daraxtlardan iborat yashil park barpo etish uchun 250 million so'm mablag' ajratildi. 1566 ta ovoz bilan g'olib bo'lgan mazkur loyiha orqali odamlar dam olishi uchun qulay sharoit yaratish maqsad qilingandi.



Yana bir g'olib loyiha tashabbuskori Baxtiyor Eshmo'minov Surxondaryo viloyati Bandixon tumanida 1 gektar maydonga ko'ngilochar dam olish maskani barpo etish taklifini ilgari surgan. Loyiha 1079 ta ovoz to'pladi va davlat byudjetidan 250 million so'm mablag' ajratildi. Boshqa bir loyiha orqali esa Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on tumani “Qoqsoy” MFY hududida jamoat parki barpo etiladigan bo'ldi.

— Mazkur miqdor o'rtacha hisobda olingan. Tashabbus ko'proq mablag' talab qilsa, hokimliklarning mahalliy byudjetidan o'ttirilgan mablag'dan ham moliyalashtirish nazarda tutilgan, — deydi Habibullo Hamidov.

Ajratiladigan mablag' miqdoriga loyiha-smeta hujjatlari asosida aniqlik kiritiladi. Ko'rsatilgan miqdordan oshsa, loyihaga boshqa loyihalardan tejalgan mablag' ham ajratilishi mumkin. Umuman, bu kabi masalalar “Mening bog'im” loyihalarini shakllantirish va moliyalashtirish tartibi to'g'risidagi nizom bilan tashqiqlangan.

Loyihada takliflarni ilgari surishning ham o'ziga yarasha tartibi bor. Aniqlig'ini, loyiha doirasidagi 3 bosqichli — taklif kiritish, saralash va ovoz berish jarayoni “Tashabbusli budjet” bilan bir xil tashkil etilsa-da, takliflarni bildirish bir oz farq qiladi. Mutaxassislarining aytishicha, “Tashabbusli budjet” da fuqarolar tashabbus mazmunini o'zi kiritgan bo'lsa, “Mening bog'im”da Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi tomonidan mingdan ziyod hudud tanlanadi. Qolaversa, yashil parklar va jamoat parklari uchun yer olish bilan bog'liq masalalarni mahalliy hokimliklar

hal qiladi. Dam olish maskanlari, sayilgohlar rejalashtirilgan loyiha asosida belgilanadi. Manzillar portalgga joylashtirilgach, ushbu jarayon takliflarning saralash jarayonida rad etilmasligiga yordam beradi. Ya'ni taklif etilayotgan manzil boshqa fuqaro yoki biror korxonaga tegishli emasligi inobatga olinadi. Aks holda taklif rad etiladi. Fuqarolar ham yashil zonalar barpo etish va belgilangan manzilda manzarali daraxtlar ekish taklifini ilgari surishi mumkin.

Loyihalar bevosita jamoatchilik bilan bog'liq bo'lsa-da, hududlarda ekiladigan daraxtlarga kim g'amxo'rlik qilishi masalasi hamon dolzarb. Mutaxassislarining ma'lum qilishicha, bu fuqarolarning o'ziga tashlab qo'yilmaydi. Ishchi guruh tomonidan har bir tuman va shaharda pudratchi guruh tashkil qilinadi. Deylik, biror hududda jamoat parkini barpo qilish kerak bo'lsa, loyihachi, ya'ni tuman va shahar ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi bo'limlari parkdagi yo'laklar, yoritqichlardan tortib, sug'orish tizimigacha loyihalashtiradi. Pudarachi unga ajratilgan mablag' hisobidan ko'chatlarning tuproq-iqlim sharoitiga mosligini tanlaydi va shu asosda ekadi. Uch yilgacha sug'orishdan agroteknik tadbirlargacha hamma vazifa pudratchiga yuklanadi.

Fuqarolarning bu jarayonda ishtirok etishi esa ixtiyoriy masala. Ammo hudud ahli birlashib, o'z shahri yoki tumanida yashil bog' barpo etilishiga erishsa, buning uchun ovoz berish jarayonida faollik ko'rsatsa, o'sha yashil hududni asrab-avaylashda ham daxldorlikni his etishi tayin. Shunda loyihaning maqsadlaridan biri yurtdoshlarimiz orasida ekologik madaniyatni yordoshirishdan iborat ekani oydinlashadi.

Iroda TOSHMATOVA,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri



Tanlov

2025-yil 8-aprel, 71-son

MEZON

YANGI O'ZBEKISTON

YOSH
KITOBXON

Andijonda

KITOBXONLIK BAYRAMI

YAXSHI XULQ VA MUKAMMAL BILIM ASOSI

Kitobga, ilmga, mutolaaga havas hamma zamonlarda ham ziyo ahlining asl muddaosi bo'lgan. Tarixchilar Aleksandr Makedonskiy O'rta Osiyoni bosib olganda, askarlariga birinchi bo'lib ezig'ini va yovuzlikning mazmun-mohiyatini tushuntiruvchi va hayotga tatbiq etuvchi qomusiy kitob — "Avesto"ni yerli xalqdan tortib olish va butunlay yo'q qilib tashlashni buyurganini yozib qoldirgan.

Sayyora TO'YCHIYEVA,
O'zbekiston Yozuvchilar
uyushmasi a'zosi

X asrning ikkinchi yarmida yashagan vazir Ibn Abbos kitobni juda qadrlagan, kutubxonasidagi ilohiyotga oid kitoblarning o'zi 400 tuyaga yuk bo'lgan. Shu bilan birga, Abbos texnika, tabobat, astronomiya, musiqa, mantiq va matematika bilan mukammal shug'ullangan.

Uning kutubxonasida jami 117 mingga yaqin kitob bo'lgan va safar paytlarida o'zi bilan olib yurgan. Kitob yuklangan karvon o'ziga xos katalog vazifasini bajargan, ya'ni tuyaalar alifbo tartibida yurgan va kutubxonachilar istalgan kitobni darhol topib berish imkoniyatiga ega bo'lgan.

Insoniyat tarixining uch ming yillik silsilasida Urxun-Enasoy tashbitiklari, "Devonu lug'otit turk", "Qutadg'u bilig", "Alpomish", "Xamsa" bizning bolalar o'rganib, keyingi avlodga yetkazadigan durdonalar hisoblanadi.

Sharqda kitob muqaddas sanalgan, ulug'langan. Buyuk bobomiz Amir Temur zamonida juda yirik kutubxonalar bo'lgan. Sohibqiron mamlakatdan kitob olib chiqib ketishni taqiqlagan. Buyuk Temurning kitobga munosabati haqida yana bir misol. U nevarasi Mirzo Ulug'bekni elchilarga boshliq qilib Rumga (Turkiyaga) jo'natadi. Ulug'bek qaytishida bobosiga Jaloliddin Rumiyning

"Masnaviyi ma'naviy" asarini sovg'a qilib olib kelganda, bu tuhfini ko'rgan saltanat sohibi behad xursand bo'lgan.

Umuman, temuriylar saltanatida Mirzo Ulug'bek, Boysunqur Mirzo, Alisher Navoiy, Badiuzzamon kutubxonalarini madaniy tariximizning qimmatli sahifalarini tashkil etadi. Kitobxonlik madaniyatining yana bir muhim jihati, insonni bilimdonlik, suhbat, topqirlik sari yetaklaydi.

Gruzin xalqi madaniyat va ma'naviyat belgisi sifatida har bir kelin sepiga Shota Rustavelining "Yo'lbars terisini yopingan pahlavon" kitobini qo'shib berar ekan. Xalqimizda ham shunday mumtoz tarbiyaviy asarlar ko'p. Faqat ularni targ'ibot, tashviqot qilishimiz, o'quvchilar qalbiga chuqurroq singdirishimiz lozim. Donalar ta'rificha, kitob bilim manbai, insoniyat to'plagan hikmatlar xazinas, ijtimoiy ong mahsulidir.

Jadid bobomiz Abdulla Avloniy: "Har bir millatning dunyoda borligini ko'rsata oladigan o'ynal hayoti — bu uning milliy adabiyoti va tilidir", deydi. Turkiy tilni nazmga yaroqsiz deb bilganlarning haddini buyuk Navoiy XV asrda ko'rsatib qo'ygani, XX asr boshida o'zbek tilida nasriy asar yozishning naqadar og'irligini

ro'kach qilganlarni Qodiriy va Cho'lponning nasrdagi betakror so'z nazmi hayratga solgani va bu qutlug' silsila keyingi avlod vakillarining hayratlanarli ijodlarida davom etayotgani tarixning o'chmas zarvarlari.

Bolaga kitob bering!

Vodiyning oltin marjoni Andijonda tashkil etilgan "Yosh kitobxon" ko'rik-tanlovining respublika bosqichida ishtirok etayotib, xayolimdan shu fikrlar o'tidi...

Davlatimiz rahbari o'tgan yili Marhamat tumanidagi yoshlar kutubxonasiga tashrif buyurganida andijonlik kitobxon, bilimdon yoshlar bilan suhbatlashadi va ular mamlakat yetakchisiga "Yosh kitobxon" respublika tanlovining saralash bosqichlari mana shu muhtasham kutubxonada o'tkazilsa, degan taklifini aytishadi. Prezidentimiz bu taklifga rozilik bildiradi va va'daga binoan, hududlar g'olibi bo'lgan

10-14 yoshdagi 14 nafar, 15-19 yoshdagi 14 nafar, 20-30 yoshdagi 14 nafar, jami 42 g'olibni olib, biz hakamlar hay'ati a'zolari Yoshlar ishlari agentligi mutasaddilari boshchiligidagi Marhamatga yo'l oldik.



Nizomga asosan, tanlov besh bosqichda tashkil etildi. Birinchi bosqichda arizalar qabul qilindi va tadbir mahallalarda o'tkazildi. Tanlovning ikkinchi bosqichi sektorlarda, uchinchi bosqichi tuman va shaharlarda, to'rtinchi bosqichi esa Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida tashkil etildi. Beshinchi — respublika bosqichida "Badiiy asarlar bilimdoni", "Tekzor savol-javob", "Buyuk mutafakkir va adib", "She'riyat", "Kvest" shartlari asosida bellashuvlar bo'lib o'tdi.

Tanlov ishtirokchilari Imom Buxoriy, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mirzo Ulug'bek, Nosiruddin Rag'uziy singari ulug' mutafakkirlar hayoti va ijodidan, Jek London, Maxtumquli Firog'iy, Jon Staynbek, Xelli Xarper Li, Aleksandr Pushkin, Lev Tolstoy, Fyodor Dostoyevskiy, Muxtor Shoxonov, Ibroym Yusupov singari xorij va qardosh adabiyot vakillari, Cho'lpon, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Said Ahmad, Pirimqul Qodirov, Odil Yoqubov, Rauf Parfi, Halima Xudoyberdiyeva, Usmon Azim, Erkin A'zam, Xurshid Do'stmuhammad, Sirojiddin Sayyid singari o'zbek adabiyoti darg'alari asarlarini tahlil qilib, asar qahramonlarining ibratli ishlari haqida to'lib-toshib gapirdilar.

Mazkur tanlov yosh kitobxonalarni mustaqil fikrlash, sahnada o'z fikrini dadil himoya qila olishga o'rgatishi barobarida minglab oilalarga fayz olib kirgani nur ustiga nur bo'lmoqda. Zero, kitob bilimdon bolalarimiz yuragiga ezigulik, adolat, shijoat tuyg'ularini joylayotganini ularning pishiq-puxta javoblari va yonib turgan ko'zlarida ko'rdik.

Prezident sovg'alari egalarini topdi

Bu yilgi respublika tanlovida Toshkent shahridan Dilbar Haydarova 10-14 yoshlilar orasida, O'g'iljayron Xoldurdiyeva

15-19 yoshlilar orasida va xorazmlik Maftuna Ochilova 20-30 yoshlilar orasida g'olib bo'ldi va Prezident sovg'asi — "Chazor" elektromobili bilan taqdirlandi. Ikkinchi o'rin sohiblariga 75 million so'mdan, uchinchi o'rin sohiblariga esa 50 million so'mdan, qolgan barcha ishtirokchilarga 10 million so'mdan pul mukofotlari topshirildi.

Toshkent shahridagi aniq fanlarga ixtisoslashtirilgan Muhammad al-Xorazmiy maktabining 8-sinf o'quvchisiman, deydi Prezident sovg'asi — avtomobil bilan taqdirlangan Dilbar Haydarova. — Bolaligimdan o'zbek va qardosh xalqlar og'zaki ijodini o'rganishga ahd qildim, "Kuntug'mish", "Go'ro'g'li", "Alpomish", "Avazxon" dostonlarini o'qidim, ertagu masallarni yod oldim, eng muhimi, ota-onam, do'stlarim, ustozlarim oldida yuzim yorug' bo'ldi, Prezident sovg'asi — bu men uchun ishonch, mas'uliyat. Kelgusida olim bo'lmoqchiman, o'qish, izlanishlarimga ilhom berdi bu mukofot! O'g'iljayron Xoldurdiyeva ham Prezident sovg'asi — "Chazor" elektromobilini qabul qilib olar ekan, quvonchi ichiga sig'may bunday deydi:

Ushbu avtomobil ota-onamga sovg'am bo'ldi. O'zbekiston davlat jahon tillari universitetini bitirib, tarjimon bo'lmoqchiman. "Yosh kitobxon" tanlovida o'ttirgan do'stlarimning adabiyotga mehri, kitobga hurmatini ko'rib, kelgusida mana shu o'rgangan asarlarimni baholi qudrat ingliz tiliga o'girish niyatim bor. Nabi Jaloliddinning "Umar Xayyom" asarini sharhladim, Ahmad A'zam ijodiy faoliyatini tahlil qildim, Navoiy, Fitratning ijodini hayratlanib so'zlab berdim. Farzandlari kitob o'qisa, mashina bilan mukofotlandigan davlat rahbarining e'tiboridan boshim osmondal!

O'zim turkman qiziman, Berdi Kerboboyev, Ota Gushudov asarlari qahramonlari, Maxtumquli ta'rifini bunday keltirgim keladi:



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



Maxtumquli — ruhi-joni turkmaning,
Tomirida oqar qoni turkmaning,
Maxtumquli — go'zal yuzi turkmaning,
Dunyolarni ko'rar ko'zi turkmaning,
Maxtumquli —

jon va tani turkmaning,
Ay, bepoyon keng Vatani turkmaning.
Turli yillarda bu tanlov g'oliblari bo'lganlar — qoraqalpog'istonlik Shahzoda Karimboyeva, samarqandlik Mohiniso Shomurodova Zulfiya nomidagi davlat mukofotini ham qo'lga kiritgan. Samarqandlik ikki bilimdon yosh — Mahliyo O'roqova, Shohsanam Xolboyeva "Kelajak bunyodkori" medali bilan, andijonlik yosh kitobxon Fotimaxon Mamtaliyeva "Shuhrat" medali bilan mukofotlangan. Bular kitobxon yoshlarning iste'dodlari va zukkoliklari qizg'in qo'llab-quvvatlanayotganidan darak beradi.

Sirasini aytganda, yurtimizda insoniyatning buyuk kashfiyoti — kitobning ma'no-mazmuni, ahamiyati haqidagi qizg'in bahslar, kitobxonlik tadbirlari ma'rifat bayramlariga aylanib ketmoqda!

Ilmni qadrlang, ilmga intiling!

Hakamlar hay'ati a'zosi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Eshqobil Shukur tanlov ishtirokchilariga og'yo'l tiladi:

Men sizning yoshingizda, ya'ni 9-10 sinfligimda adabiyot fanidan respublika tanlovi g'olib bo'ldim va bittagina "Faxriy yorliq" bilan mukofotlandim, biror sovg'a yoki gul qo'shib berishmadi. U vaqtlarda shu ikki varaqqog'o'zga ham rosa suyugan ekanmiz. Sizlarga berilgan imtiyozlar, Prezident sovg'alari, pul mukofotlari yangi O'zbekiston farzandlariga ko'rsatilgan katta e'tirof. Hali o'qiyotgan, ishlayotgan o'quv dargohlarimizda ham sizni qancha mukofotlar kutib turibdi. Eng katta mukofot esa ota-onangiz, ustozlaringiz ishonchini oqlaganingiz bo'ladi. Biringiz olim, biringiz yozuvchi, biringiz rahbar, biringiz ustoz bo'lib hurmat ko'rasiz, faqat izlanishdan to'xtamang, o'qishdan to'xtamang, aziz bolalar!

Davlatimiz rahbari bekorga: "O'z tajribamdan kelib chiqib, sizlarga aytadigan maslahatim shu: ilmni qadrlang, ilmga intiling! Bir soniya vaqtigingiz ham bekor o'tmasin! Yoshlik — umringing eng bebaho davri. Ilm va bilim — o'tda yonmaydigan, suvda cho'kmaydigan, hech kim sizdan tortib ololmaydigan boylik ekanini aslo unutmang!" demagan.

Taniqli shoirming samimiy niyatlaridan ruhlangan shumanaylik Temurbek Sarsenboyev qoraqalpog' shoiri Ibroym Yusupovdan zavqlanib she'r o'qiydi.

Ma'rifatli millatning hikmat karvonlari, tafakkur karvonlari yorug' manzillar sari odimlayaveradi. Zotan, bu karvonlarning bekatlarini mehr chiroqlari bilan yoritib turgan karvonboshilari bor.

Kitob insoniyat tarixida taraqqiyot va rivojlanishning eng muhim harakatlantiruvchi kuchi bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi.

Yangicha yondashuvlar



Rahbar ayolga jamoa bilan muloqot qilish, muzokaralar o'tkazish va omma oldida nutq so'zlash uchun badiiy adabiyotlar va nutq madaniyatiga oid kitoblar juda zarur. Shuningdek, kitoblar ularga yangi tendensiyalar, innovatsiya va texnologik yutuqlardan xabardor bo'lish imkonini beradi hamda boshqaruv qarorlarini zamonaviy talablarga mos ravishda qabul qilishini ta'minlaydi.

Motivatsiya va ruhiy barqarorlik rahbar xotin-qizlar uchun muhim xususiyatdir. Biografiyalari, shaxsiy rivojlanishga oid kitoblar muvaffaqiyatga erishgan ayollar tajribalarini o'rganish, to'siqslarni qanday

Rahbarlik nafaqat tashkiliy yoki boshqaruv ko'nikmalari, balki keng dunyoqarash, strategik fikrlash va doimiy rivojlanishni ham talab qiladi. Bunda kitob o'qish muhim o'rin tutadi. Ularning muvaffaqiyatga erishishida kitobxonlikning o'rni alohida ahamiyatga ega. Kitoblar, ayniqsa, boshqaruv, psixologiya, iqtisodiyot va shaxsiy rivojlanishga oid adabiyotlar rahbarlarda tanqidiy va strategik fikrlashni shakllantirishda yordam beradi.

RAHBAR AYOLLAR VA MUTOLAA



Pardagul RAZZOQOVA,
Respublika Ma'naviyat va ma'rifat
markazi Beruniy tumani bo'linmasi
rahbari, "Rahbar ayollar maktabi"
tinglovchisi

yengib o'tish mumkinligini bilishga yordam beradi.

Innovatsion yondashuvlar shiddat bilan o'zgarayotgan dunyoda rahbarlardan tezkor va innovatsion qarorlar qabul qilishni talab etadi. Mutolaa yangi g'oyalar bilan tanishish, dunyoqarashni kengaytirish va kreativ yondashuvni rivojlantirishga imkoniyat yaratadi.

Ularning muvaffaqiyatga erishishida xorijiy tajribalarni o'rganish ham foydadan xoli emas, albatta.

AQSHda ayollar rahbarlik qobiliyatini rivojlantirishi, tajriba almashishi va shaxsiy

o'sishiga yordam beradigan "Ayol rahbarlar uchun kitobxonlik klublari" bor. Ularning maqsadi xotin-qiz rahbarlar dunyoqarashida muvaffaqiyatga erishish uchun kerakli bilim va ko'nikmalar shakllantirishdir.

Klublar ish jarayonida muntazam uchrashuvlar tashkil etib, a'zolari belgilagan vaqtda tanlangan kitoblarni muhokama qiladi. Asosan, boshqaruv, yetakchilik, shaxsiy o'sish, gender tenglik va muvaffaqiyatga erishish haqidagi kitoblar o'qiladi. Klub a'zolari shaxsiy va kasbiy tajribalarini o'zaro o'rtoqlashadi.



WiLD — Women in Leadership Development Buyuk Britaniyadagi ayol rahbarlar uchun kitobxonlik va shaxsiy rivojlanish dasturi. Uning asosiy maqsadi xotin-qiz rahbarlarning bilim va malakasini oshirish, kitobxonlik tufayli yetakchilik, strategiya, tashabbuskorlik sohasidagi eng yaxshi tajribalar ustida ishlash, muhokamaga loyiq, ilhomlantiruvchi hamda ta'limiy kitoblarni o'qish, tahlil qilishdir. Shuningdek, o'zaro tarmoq (networking) yaratish orqali rahbar ayollar o'rtasida tajriba almashish, maslahat

va qo'llab-quvvatlash imkoniyatini taqdim etish, muvaffaqiyatli ayollar tajribasini o'rganishdan ham iborat.

Germaniyadagi ayollar uchun liderlik va rivojlanish dasturi "Frauen in Führungspositionen" — FiF deb nomlangan. U hukumat va yirik tashkilotlar tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan dastur, xotin-qizlarni yuqori rahbarlik lavozimlariga tayyorlash va yuqori darajadagi qarorlar qabul qilish jarayonlariga jalb etishni maqsad qilgan.

Dasturning asosiy yo'nalishlari rahbar ayollar uchun maxsus kurs, seminarlar, vorkshoplar tashkil etish, mentorlik va kouching dasturlarida ta'lim, kasbiy o'sish uchun tajribali rahbarlar bilan ishlash imkoniyatini yaratish, kitobxonlik hamda intellektual rivojlanish orqali yetakchilik, shaxsiy o'sish, gendertenglikka bag'ishlangan kitoblarni o'qish va muhokama qilishdir.

"Womenomics" Yaponiya hukumati tomonidan ayollarni iqtisodiy jarayonlarga faol jalb etish va rahbarlik lavozimlaridagi ulushini rivojlantirish maqsadida amalga oshirilayotgan dastur hisoblanadi. U birinchi marta 1999-yilda Goldman Sachs tahlilchisi Ket Matsuy tomonidan taklif etilgan va 2013-yildan boshlab o'sha paytdagi mamlakat bosh vaziri Sindzo Abe rahbarligida rasmiy davlat siyosatiga aylangan.

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalar tahririyati DM

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 446.
36811 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Navbatchi muharrir: Nodir Mahmudov
Musahhih: Sherzod Mahmudov
Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy

O'za yakuni — 03:00

Qabulxona: (71) 233-56-33

Devonxona va e'lonlar: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz

Web-sayt: www.yuz.uz (71) 233-47-05

Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.